

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

SHARIPOV SIROJIDDIN ZARIF O‘G‘ LI

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA MINI ROMAN VA UNING IMKONIYATLARI
(Ulug‘bek Hamdam va Isajon Sulton ijodi misolida)**

5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishi

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar

f.f.n. Boboxonov M.

SAMARQAND – 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrası**

SHARIPOV SIROJIDDIN ZARIF O‘G‘ LI

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA MINI ROMAN VA UNING IMKONIYATLARI
(Ulug‘bek Hamdam va Isajon Sulton ijodi misolida)**

**5220100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishi**

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar

f.f.n. Boboxonov M.

Rasmiy taqrizchi

f.f.n. Muhiddinova B.

Bitiruv malakaviy ishi Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrasining 2015-yil 22-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (11-son bayonnoma).

Kafedra mudiri

dots. Nosirov A.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2015-yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan
va ____ ball bilan baholangan (____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

prof. Turniyozov N.

A‘zolari:

SAMARQAND – 2015

Reja:

1-bob. Romanchilikda an'ana va yangilanish: o'zgarishlar uzluksizligi.

1-fasl. Roman janrining tadrijiy taraqqiyoti.

2-fasl. O'zbek romanchiligida yangicha tamoyillarning shakllanishi

2-bob. “Boqiy darbadar” va “Na'matak” romanlarining o'ziga xos xususiyatlari.

1-fasl. Dunyoni ko'rish va aks ettirishda mini roman imkoniyatlari.

2-fasl. Mif va zamonaviy roman munosabati.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida mini romanlar yaqin yillarda paydo bo'lganiga qaramasdan, tanqidchilik hukmidan o'tib, adabiy jarayonning to'laqonli a'zosi, ajralmas bo'lagiga aylanishga harakat qilmoqda. Bundan 10-15 yil avval Braziliyalik yozuvchi Paulo Koeloning jahonga mashhur "Alkimyogar", "Beshinchi tog' " kabi mo'jaz romanlari o'zbek tiliga o'girilib, kitobxonlar mehrini qozonganidan keyin birin-ketin o'zbek adabiyotida ham hajman qisqa, ammo olam va odam haqida qamrov ko'lami keng romanlar paydo bo'la boshladi.

Adabiyotshunos olimlar tomonidan sanoqsiz izlanishlar olib borilganiga, ko'plab ta'riflar berilganiga qaramay, roman janri haqidagi qarashlar, ularning xillari haqidagi fikrlar hamon bir xil emas. Ayrim adabiyotshunos olimlar romanning yuzaga kelish tarixi haqida fikr yuritib, roman quyi tabaqa vakillarining estetik ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan, degan mulohazani ilgari suradilar. Bunday chalkashlik ildizlari, albatta, G'arb adabiyotshunoslarining qarashlariga borib taqaladi. G'arb olimlarining bu chalkash fikrlari keyinchalik rus va boshqa qardosh xalqlar olimlarining ishlariga ham ko'chib o'tgan. Oqibatda adabiyotshunoslikda romanni eposga qarama-qarshi qo'yish, romanni quyi omma talablari va didi asosida yuzaga kelgan badiiy asar deb baholash qat'iy hukmron fikrga aylandi.

Bu xildagi tortishuvlar faqat bizda emas, xorij adabiyotshunosligida ham mavjud. Hanuzgacha roman qanday janr degan savolga javob izlanyapti. Biroq, aksar javoblarning hech birida bu janrga to'laqonli ta'rif berilganicha yo'q. Hamma tadqiqotchilarning mulohazalarini bir maxrajga keltiradigan bo'lsak, ularning fikri shunday: roman o'ta murakkab, biroq hali to'la shakllanmagan janr. Hatto, rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin ham romanni «shakllanayotgan, lekin to'laligicha shakllanib ulgurmagan» janr, deb tilga oladi. Olim bu fikrlarni roman

eng ko‘p yozilgan rus adabiyotining oltin davri tahlilidan kelib chiqib aytganini nazarda tutsak, masalaning nechog‘lik murakkabligi yanada yaqqolroq ko‘rinadi.

Darhaqiqat, romanni janr sifatida o‘rganishning o‘ziga xos qiyinchiliklari bor. U doimiy rivojlanishda bo‘lgan va hali ham to‘kis tayyor bo‘lmagan yagona janr. Yanayam aniqroq aytadigan bo‘lsak, roman janrining poydevori qotgani yo‘q va biz hali uning barcha plastik imkoniyatlarini oldindan bilmaymiz. Qolgan janrlarni biz janr, ya’ni badiiy asarni quyishning alohida barqaror shakli sifatida tayyor holda ilgaridan bilamiz. Misol uchun, qissa, sonet, tragediya kabi janrlarni biz nafaqat tayyor holda bilamiz, balki anchagina eskirgan janr sifatida qabul qilamiz. Ulardan har birining adabiyotda real tarixiy kuch sifatida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos qonun-qoidalari turg‘unlashgan. Bu janrlarning barchasi, hech bo‘lmaganda ularning asosiy unsurlari yozma yodgorliklar va kitobdan ko‘ra ancha qadimiy, o‘zining azaliy og‘zaki hamda dongdor tabiatini ozmi-ko‘pmi hozirgi kungacha saqlab kelmoqda. Yirik janrlardan birgina roman yozma yodgorliklar va kitobdan yoshroq, faqat ugina ovozsiz o‘zlashtirish, ya’ni o‘qishning yangi shakllariga organik moslashuvchan. Ammo asosiysi – roman boshqa janrlardagi kabi qat’iy qoidalaridan xoli: romanning janr qonun-qoidalari emas, uning ayrim namunalari tarixan ta’sirchan, xolos. Aytish mumkinki, boshqa janrlarni o‘rganish o‘lik tillarni o‘rganishga o‘xshaydi, romanni o‘rganish esa – tirik, ayni paytda yosh tillarni o‘rganishga mengzab ketadi.

Roman haqida nazariy fikrlar bildirishning qiyin ekanligi ana shular bilan izohlanadi. Chunki bu nazariya boshqa janrlarnikidan farq qiladi. Roman – bu janrlar orasidagi oddiy bir janr emas. U allaqachonlar shakllanib, qisman o‘lik janrlarga aylanib ulgurgan janrlar orasida yagona **shakllanayotgan** janrdir. Roman boshqa janrlar bilan singishib keta olmaydi. U adabiyotda o‘zining yetakchi bo‘lishi uchun kurashmoqda, qayerda-ki u g‘olib kelsa, boshqa eski janrlar barham topmoqda.

Adabiyotshunoslikda an’anaviy tushunchamizdagi roman bilan mini roman o‘rtasidagi o‘xshash va ayro jihatlar, mini romanlarning dunyo va inson haqidagi

qarashlarimizni boyitish imkoniyatlari xususida turli munozarali fikrlar paydo bo'lyapti. Umuman, roman mini, ya'ni kichik hajmli bo'lishi mumkinmi, agar shunday bo'lgan taqdirda, janr qoidalari haqida shu paytgacha aytilgan fikrlarga to'la mos keladimi, degan savollar ko'pchilikni o'ylantirishi, tabiiy. Roman jamiyat badiiy-estetik tafakkuri in'ikosi sifatida yuzaga kelar ekan, olam ichra har turli ko'ylarga tushayotgan, turmush mushkulotlari ta'sirida har turli evrilishlarni boshdan kechirayotgan inson adabiyotning bosh mavzusi bo'lib qolaveradi. Har soniya fursat va imkoniyatni boy berib qo'ymaslik uchun kurashayotgan inson obrazi mukammal talqin darajasida romanda tiklanmaguncha, olamning badiiy modelini yaratish muammolari dolzarbligicha turaveradi. Shu ma'noda, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub mini romanlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning janr talablaridan kelib chiqadigan imkoniyatlari masalasiga baholiqudrat oydinlik kiritish bitiruv malakaviy ishining **dolzarbligini** tayin qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlarning salmoqli qismi epik turning roman janriga bag'ishlangan. Xorijlik ko'plab adabiyotshunoslar, xususan, o'zbek tanqidchilari ham turli muammolar nuqtai nazaridan romanga qayta-qayta murojaat qilishgan¹. Ammo janrning yuzaga kelishi, taraqqiyot tamoyillari, romanning tur va xillari haqida yetakchi olimlarning fikrlari hamisha bir joydan chiqmaganligini kuzatishimiz mumkin.

¹ Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Т.: Ёш гвардия, 1979. – Б. 262; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1973. – С. 207; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979. – С.422; Затонский Д. Искусство романа и XX век. – М.: Наука, 1973. – С. 229; Лукич Д. Теория романа. – Варшава, 1963; Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 176; Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Т.: Ёш гвардия, 1983. – Б. 216; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Т.: Фан, 1969; Мирвалиев С. Роман ва замон. – Т.: Фан, 1983; Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Биринчи жилд. – Т.: Фан, 1991. – Б. 299-382; Каримов Н. Ойбек. – Т.: Ёш гвардия, 1985; Норматов У. Насримиз тамойиллари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1978; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: Маънавият, 2000; Умутов Х. Бадий ижод асослари. – Т.: «Ўзбекистон» 2001; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т.: 2004; Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Т.: Чўлпон, 2002; Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Т.: «Фан», 1992; Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. – Т.: «Фан», 1994; Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. – Т.: «Фан», 1977; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: «Шарқ», 2004; Пардаева З. Ўзбек романи поэтикаси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003.

Milliy istiqlol O‘zbekistonga nafaqat jahon hamjamiyatida suveren davlat sifatida tan olinish huquqini berdi, balki ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-madaniy, ilmfan, sanat va adabiyot sohalarida umumjahon darajasiga ko‘tarilish uchun tinimsiz izlanish, o‘rganish imkonini ham yaratdi. Binobarin, xalqimizning “ozodlik, mustaqillik va baxt-saodat sari azaliy intilishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga azm-u qarori mana shunday o‘zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch”¹ga aylandi. Mustaqillik romannavislarga tom ma’nodagi so‘z erkinligini berdi. Keyingi 20-25 yil mobaynida ayrimlari jahon adabiyotining nodir namunalari bilan bo‘ylasha oladigan yuzdan ziyod turli uslubdagi romanlar yaratildi. Biroq yozuvchilar ruhiyatida, orzu-xayollarida totalitar tuzum, parodoksal hayotga nisbatan norozilik yillar davomida maddalab yotgan yaraga aylangan ediki, romanlarning aksariyatida yaqin o‘tmish – mustabid tuzum sharoitidagi voqelik qalamga olindi. Ozodlik, erk istagiga yo‘g‘rilgan bu dardlar o‘zbek romanlarida voqelikka nisbatan nafaqat realistik munosabatni, balki yangicha qarashlarni ham shakllantirdi. T.Murodning «Otamdan qolgan dalalar», «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi», O.Muxtorning «Ming bir qiyofa», «Ko‘zgu qarshisidagi odam», «Tepalikdagi xaroba», O‘.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanlarida XX asrda xalqimiz boshidan kechgan eng og‘riqli, ziddiyatli voqealar badiiy ifodasini topdi.

Moziy va unga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarganligi tufayli xalqimiz tarixidagi Amir Temur, Mirzo Ulug‘ bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi singari yorqin shaxslarning badiiy siymolari qayta talqin etildi. O.Yoqubov, B.Ahmedov, M.Ali, P.Qodirov, X.Sulton kabi adiblarning tarixiy mavzulardagi romanlarida tarix va zamonaviylik muammolari bor bo‘yicha gavdalandi.

Yozuvchilarimizning jahon romanchiligidagi ilg‘or an‘analardan kengroq bahramand bo‘lishlari natijasida adabiyotimizda modernistik uslubga yaqin uslublar, ong oqimi, absurd roman ta’sirida yaratilgan romanlar paydo bo‘ldi. O.Muxtorning «Maydon», X.Do‘stmuhammadning «Bozor», T.Rustamning

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 5.

«Kapalaklar o'yini» kabi romanlarida inson obrazi yangicha ko'rinish, o'zgacha ruh, osoyishta uslubda namoyon bo'ldi. Bir asrlik tarixga ega o'zbek romani poetikasi bunday shakliy va uslubiy o'zgarishlar tufayli yangilandi, ruhiylashdi, xillari ko'paydi. «Otamdan qolgan dalalar» romanida erkin nasr, lirik nasr, nasriy sajning sinkretik uslubi namoyon bo'ldi. Umuman, ananaviy roman poetikasi tubdan o'zgardi. Roman so'z sanatining eng yorqin namunasi sifatida yuzaga chiqdi.

Ammo keyingi yillar milliy adabiyotimizda yangi voqea bo'lib yuzaga chiqqan mini romanlar badiiyati, ular sujetidagi siqqlik va kompozision qurilishidagi o'zgarishlar haqida atroflicha ilmiy izlanishlar olib borilgani yo'q. Shu jihatdan olib qaralganda, mini roman imkoniyatlariga bag' ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishimiz bu boradagi bo'shliqni biroz bo'lsa-da, to'ldiradi degan umiddamiz.

Ulug'bek Hamdam "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Sabo va Samandar" nomli romanlari, "Tangriga eltuvchi isyon", "Atirgul" kabi she'riy to'plamlari, "Yolg'izlik" nomli qissa va hikoyalar to'plami, "Badiiy tafakkur tadriji", "Yangilanish ehtiyoji" singari monografiya va ilmiy maqolalar to'plamlari bilan so'nggi yillarda o'zbek kitobxonlari hamda adabiyotshunos olimlarining e'tiboriga tushdi.

Isajon Sultonning 2011- yilda nashrdan chiqqan "Boqiy darbadar" asari adabiyotimizda katta yangilik, muhim voqea bo'ldi. Bu – birinchidan, romandek yirik janr o'lchamlaridan ancha kichik bo'lishiga qaramasdan, o'zbek nasrida hali shu paytgacha uchramagan mini romanning adabiyotimizga kirib kelishida namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, badiiy imkoniyat va qamrov ko'lami bilan bemalol roman deb atasa bo'ladigan yaratilgan dunyoga kelganligida ko'rinadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek yozuvchilari tomonidan keyingi yillarda yaratilgan qator romanlarni tahlil va talqin qilish orqali mini roman va uning imkoniyatlari, hajman kichik xarakterdagi romanlar qahramonlarining xarakterlarini shakllantirishda qo'llanilgan usul va

vositalarning roli kabi qator masalalar tadqiq etilgan. Shu holatlardan kelib chiqib, tadqiqotimizning **asosiy maqsadini** roman janrida bitilgan mini asarlarning tarixiy-hayotiy asoslari, o'zbek adabiyotidagi o'rni, ahamiyati, Ulug' bek Hamdam va Isajon Sulton kabi nisbatan yosh yozuvchilarimiz ijodida tutgan o'rini yoritish, mini romanlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda an'anaviy romanlar bilan o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish tashkil qiladi.

O'zbek nasrida mini romanlarning paydo bo'lishi va ularning ustun yoki zaif jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadidan kelib chiqib, quyidagi **vazifalarni** bajarish belgilangan:

1. Roman janri taraqqiyoti va keyingi yillarda dunyo yuzini ko'rgan mini romanlarning poetik xususiyatlari yuzasidan ilmiy-nazariy materiallarni umumlashtirish;

2. Bugungi o'zbek romanchiligi rivojida mini romanlarning o'rni, ularning milliy tafakkur rivojidagi estetik ahamiyatini asoslash;

3. Romanchilikdagi adabiy an'analar va yangilanishlarning tabiatini ochish, yozuvchilarning dunyo va inson haqidagi qarashlarni yangicha shakllarda ifodalashga bo'lgan urinishlarining tub sabablarini aniqlash;

4. Badiiy kommunikasiya hodisasi: yozuvchi – adabiy matn – kitobxon o'rtasidagi o'zaro muloqotning asosiy nuqtalarini tadqiq etish;

5. Hozirgi o'zbek romanchiligida hajman kichik, ammo qamrov ko'lamli keng asarlarga ehtiyoj ortib borayotganligi xususida mulohaza yuritish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

– jahon va o'zbek adabiyotida paydo bo'lgan mini romanlarning insoniyat badiiy tafakkuri rivojida tutgan o'rni belgilanganligida;

– romanchilikda asarning hajmi emas, balki undagi mavzu va muammolar ko'lamli birinchi o'ringa ko'tarilganligi asoslanganligida;

– yozuvchilarimizning yirik badiiy umumlashmalarni nisbatan kichik shakllarda ifodalashga bo'lgan urinishlari roman poetikasining yetakchi tamoyiliga aylanayotganligiga e'tibor qaratilganligida;

– sujet va kompozisiya, mavzu yo‘nalishidagi novatorlik kabi nazariy masalalar mohiyati aniqlanganligida;

– portret, peyzaj, nutq, ichki monolog, psixologik detal, tush motivi, interyer kabi ruhiy tahlil vositalarining xarakterlar tiynatini ochishdagi vazifalari singari masalalarning yechilganligida ko‘rinadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodi. Bitiruv malakaviy ishida Prezidentimiz Islom Karimovning milliy ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan adabiyot va uning rivojiga bag‘ishlangan risolalarida bildirilgan asosli mulohazalarga, istiqlol davrida olib borilgan roman janriga bag‘ishlangan tadqiqotlarga, shuningdek, jahon adabiyotshunosligida o‘chmas iz qoldirgan atoqli olimlarning qarashlariga tayanildi. Xususan, M.M. Baxtin, J.P. Sartr, E.Xovardsxolim, A.Kamyu, Xose Ortega-Gasset, o‘zbek adabiyotshunoslaridan I.Sulton, M.Qushjonov, O.Sharofiddinov, U.Normatov, N.Karimov, H.Umurov, Q.Yo‘ldoshyev, D.Quronov, G.Imomova, Z. Pardayeva, J.Eshonqul kabilarning roman janri va uning taraqqiyot tamoyillariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil qildi.

Tadqiqotda adabiyotshunoslikda keng qo‘llaniladigan kompleks yondashuvga tayanildi. Badiiy asarlar asosan biografik, struktural-semiotik va psixoanaliz metodlari ko‘magida tahlilga tortildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ishda Ulug‘bek Hamdamning “Na’matak”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanlari asosiy manba sifatida tahlilga tortildi. Ushbu romanlarning poetik olami, xarakterlar tizimi va ularda ko‘tarilgan muammolarning badiiy talqini uning predmetini tashkil qildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hozirgi o‘zbek adabiyoti uchun yangilik hisoblanadigan mini romanlarning badiiy imkoniyatlari, milliy nasr taraqqiyotidagi ahamiyati, estetik xususiyatlari ilk marta yaxlit tadqiq qilinib, ilmiy-nazariy xulosalarga kelinganligi bilan belgilanadi. Ishdagi nazariy xulosalar o‘zbek adabiyotida roman janri muammolari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni safini kengaytiradi.

Tadqiqotda qoʻllanilgan tahlil usullari, uning poetik olamiga doir kuzatishlar XX asr oxiri va XXI asr boshlari oʻzbek romanchiligida roʻy berayotgan oʻzgarishlarni anglab yetishda zarur manbalardan biri boʻlib xizmat qiladi. Bitiruv malakaviy ishi materiallaridan romanchilikdagi yangilanishlarga bagʻ ishlangan uslubiy qoʻllanmalar yaratishda, malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertasiyalarini yozishda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda hozirgi oʻzbek romanchiligi boʻyicha maʼruzalar oʻqishda, shuningdek, zamondosh yozuvchilarimiz ijodida boʻy koʻrsatayotgan oʻziga xos evrilishlarni oʻrganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi “Kirish” qism, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, umumiy hajmi 67 sahifadan iborat.

BIRINCHI BOB
ROMANCHILIKDA AN'ANA VA YANGILANISH:
O'ZGARISHLAR UZLUKSIZLIGI

1-fasl. Roman janrining tadrijiy taraqqiyoti.

Zamonlar osha takomillashib kelayotgan roman janri uzoq va murakkab tadrijiy yo'lni bosib o'tdi. Asrlar davomida roman boshqa janrlar orasida badiiyat va qamrov jihatdan imkoniyatlari cheksiz ekanligini namoyon etdi. Roman nafaqat so'z san'atining eng mukammal namunasi, balki o'zi yaratilgan davr va jamiyat badiiy tafakkurining o'ziga xos ko'zgusi ekanligini ham ko'rsatadi. Shuningdek, roman boshqa adabiy janrlar ichida insonga xos ong, ruh, vujud, aql tushunchalarining bir-biri bilan o'zaro uyg'unligini aks ettira olgan, insonni shaxs sifatida shakllanishi jamiyatning ahvoli bilan bog'liqligini to'laqonli, keng qamrovli badiiy inkishof eta oladigan janrdir.

Mini roman va uning imkoniyatlari mavzusini o'rganish asnosida adabiyotshunosligimizda bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan roman janrining genezisi hamda taraqqiyot tamoyillarini, milliy romanchiligimiz imkoniyatlarini tahlil qilish, ayni paytda, janrning istiqlol davridagi holatini ko'zdan kechirish, ilmiy tahlilga tortish orqali roman taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy tasir ko'rsatuvchi omillarga e'tiborimizni qaratishimiz mumkin. Ijtimoiy hayot, jamiyat taraqqiyoti, shaxs ichki olami, insonning botiniy va zohiriy tabiati badiiy inkishof qilinar ekan, romanga xos tafakkur janrning o'ziga xosligini namoyon etuvchi adabiy omil sifatida maydonga chiqadi. Zero, romanga xos tafakkurda faqat badiiy asar mohiyatigina emas, balki jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasi ham zuhur etadi.

O'zbek milliy romanining tarixi, taraqqiyot tamoyillari qisman o'tmish va asosan zamonaviy voqelik bilan belgilanishini nazarda tutgan holda, uning shakllanishi va taraqqiyotida, avvalo, XX asrga kelib, mukammal roman janri tadrijiga ega bo'lgan rus, so'ng esa g'arb romanlari katta rol o'ynaganligini e'tirof etish kerak. Bu xususan S.Mirvaliyev aytgan fikrlar bizning mulohazalarimizga esh keladi: "O'zbek adabiyotida realistik roman taraqqiyoti to'rt manbaga – voqelik, xalq og'zaki ijodiyoti, klassik

adabiyotning boy ananasi va rus, qardosh hamda jahon xalqlari romanchiligiga asoslangan”².

O‘zbek romanining taraqqiyotiga bugungi kun nuqtai nazaridan qaralsa, uning qaysidir jihatlari kishini qoniqtarmasligi, tabiiy. Totalitar tuzumning nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga, siyosatiga o‘tkazgan tazyiqi, balki fan va san’at masalalariga ham aralashuvi o‘z tasirini o‘tkazmay qolmadi. Sotsialistik realizm metodining yakka hukmronligi natijasida ommaviy adabiyot gullab yashnadi, xalqimiz badiiy-estetik tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan asarlar yaratishga bo‘lgan urinishlar qo‘llab-quvvatlanmadi. Dunyoning boshqa milliy adabiyotlarida bo‘lganidek, romandan bosh maqsad – insonni bor bo‘yicha tasvirlash emas, sho‘ro kishisini ulug‘ lash avj oldi, alohida olingan odamning o‘y-xayollari, orzu-tashvishlarini tasvirlash ortga surildi.

Istiqlol yozuvchilarimizga jahon romanchiligi yutuqlaridan kengroq bahramand bo‘lish imkoniyatini berdi. Buning natijasida adabiyotimizda modernistik uslublar, ong oqimi, absurd roman ta’sirida yaratilgan romanlar paydo bo‘ldi. O.Muxtorning “Maydon”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, T.Rustamovning “Kapalaklar o‘yini” kabi romanlarida inson obrazi yangicha ruh, yangicha uslubda namoyon bo‘ldi.

Bir asrlik tarixga ega o‘zbek romani poetikasi bunday shakliy va uslubiy izlanishlar natijasida o‘zgardi. Misol uchun, “Otamdan qolgan dalalar” romanida erkin nasr, lirik proza, nasriy sajning sinkretik qorishuvi namoyon bo‘ldi. Roman, xuddi A.Qodiriy yashagan davrlarda bo‘lganidek, yana so‘z san’atining eng yorqin namunasi sifatida boshini qaytadan adl ko‘tardi.

Yangi o‘zbek romanchiligida yetuk yozuvchilar, ilg‘or adabiy metodlar ta’siri kuchaydi. Ammo adabiy ta’sirdan ko‘ra ko‘proq badiiy taassub kuchliroq namoyon bo‘ldi. “Kapalaklar o‘yini” absurd roman sifatida modernistik talqin uslubini eslatsa, “Maydon”, “Bozor” kabi romanlar postmodern uslubga xos jihatlari bilan ajralib turadigan bo‘ldi.

² Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Т.: Фан, 1969. – Б. 29.

Ko'p asrlik jahon romanchiligi tarixi oldida o'zbek romanchiligining bir asrlik tarixi qisqa bir muddat bo'lib ko'rinsa-da, Abdulla Qodiriy ta'mal toshini qo'ygan o'zbek romanchilik maktabi, Abdulla Qahhor mahorat maktabi, Pirimqul Qodirovning tarixiy-uslubiy takomili, Odil Yoqubovning tafakkur falsafasi jahon so'z san'atida ozmi-ko'pmi e'tirof etildi.

Qisqa davr mobaynida milliy tafakkur tarzimizda turli xil yo'nalishlar, uslubiy izlanishlar, g'oyaviy-badiiy dunyoqarashlar shakllana boshladi. Alohida tizimga ega yangilanish davri o'zbek romanchiligi yuzaga keldi. Shuningdek, adabiy jarayonda qizg'in bahs va munozaralarga sabab bo'lgan asarlar ham paydo bo'ldi.

Romanni jamiyat badiiy-estetik tafakkurining mevasi, milliy adabiyot rivojini ko'rsatib turuvchi barometr sifatida oladigan bo'lsak, kundan kunga o'z murakkablashib borayotgan hayotda ruhan, ma'nan va jismonan tirik qolishga intilayotgan inson o'zining bor dard-u tashvishi, shodlig-u g'ami bilan real voqelik inikosi sifatida mazkur janrning badiiy talqin obyektiga aylanishi tabiiy. Romanchiligimizda ro'y berayotgan ijobiy yangilanish va o'zgarishlar adabiy jarayonning izchil kechishiga olib kelayotir. Roman turli nuqtai nazarlar to'qnashuvi orqali kechayotgan bahs-munozaralarning markazida turibdi.

Romanchiligimizda noananaviy romanlar yuzaga kelishining eng muhim omili janrning tadrijiy taraqqiyot talabi bo'lib, janrga xos yangilanish, isloh qilish, tarixiy poetika komponentlarini namoyon etish o'zbek romani uchun xos xususiyatdir. Bu nafaqat o'zbek romani dinamikasini, umuman, roman janrining tadrijini ifodalaydi.

XX asr jahon romanchiligida kechgan uslubiy, botiniy, g'oyaviy, stilistik, poetik talqin o'zgarishlari poetika muammolarini yanada murakkablashtirdi. G'arb adabiyotshunosligida realizm poetikasi bilan bir vaqtda modernizm poetikasi, sobiq ittifoq adabiyotlarida esa sotsialistik realizm adabiyoti poetikalari vujudga keldi. XX asrning oxirgi choragida esa roman janrida metodlar va tamoyillar sintezi bilan bir qatorda, lirizm va proza sintezi, lirik proza yoki nasriy she'r janrlari sintezi, yani uslublar sintezi yuzaga keldi. Badiiy asar poetikasini taminlovchi komponentlar

murakkablashgani sayin badiiy tahlil teranligi talabi orta bordi. Shu sababdan ilmiy tadqiqotlarning aksariyatini umumiy poetika yoki tarixiy poetika muammolari qamrab olinadigan bo'ldi.

G'arb estetikasida Ortegai Gasset, M.Prust ijodi misolida modern romanlari poetikasining estetik ta'sirini, rus adabiyotshunosligida M.Baxtin, F.Dostoyevskiy ijodi misolida polifonik roman poetikasini tadqiq etgan bo'lsa, turli xil adabiy tizimlar o'rtasidagi qonuniyatlar ilmiy tahlili D.Lixachev, N.Konradlar tomonidan olib borildi. Adabiy turlar va janrlar, metodlar va yo'nalishlar poetikasi, syujet va kompozisiya, stilistik poetika tahlili ham ko'pgina bahs va munozaralar, ilmiy tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qildi.

O'zbek adabiyotshunosligida roman poetikasini badiiy inkishof etish asosan roman g'oyaviy-badiiy mazmunidan kelib chiqib olib borildi, shu sababdan ham poetika nazariyasini yaratishda ilmiy-publisistik ruh ustuvorlik qildi. Sof ilmiy nazariy uslub asosan O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, S.Mirvaliyev, S.Mamajonov ilmiy tadqiqotlarida namoyon bo'ldi.

Roman poetikasining tahlili jarayonida tahlilga – matn interpretasiyasiga bir necha ichki mustaqil, shu bilan o'zaro bog'langan poetika uslublari jalb etilar ekan, tadqiqotchidan muayyan ilmiy tayyorgarlik talab qilinadi. Tahlil jarayonida, shuningdek, roman janri poetikasining nafaqat hozirgi holati, balki janr tarixiy poetikasi roman tadrijida janr dinamikasining ibtidoiy negizi vazifasini o'tashi va uning keyingi davriy o'zgarishlariga ta'siri ham nazarda tutiladi. Bir yozuvchi ijodi misolida poetika badiiy imkoniyatlari tahlil etilar ekan o'z-o'zidan ungagina xos uslub poetikasi, ijodidagi individual uslub dinamikasi va tadriji o'rganiladi, uslubning o'ziga xosligi boshqa yozuvchilar uslubi bilan qiyosiy chog'ishtirish orqali ham amalga oshiriladi.

Roman janri umumjahon romanchilik ananalari va ijodiy imkoniyatlari ta'sirida taraqqiy etar ekan, tabiiyki, jahonshumul umumbashariy g'oyalar talqinida eng murakkab va eng mukammal badiiy tarzda uslublarga murojat etadi. O'zbek romani janr ichki dinamikasida ijodiy yangilanishlar kechayotgan hozirgi davrda polifonik talqin tahlili nafaqat adabiyotshunosligimiz, balki ong evrilishlari murakkab talqinining badiiy

mohiyati mantig‘ ini anglashda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘zbek kitobxoni uchun ham muhim. Ayni jihatdan badiiy asarda polifonizm muammolariga bag‘ ishlangan adabiyotshunos A.Nurmatovning «Badiiy asarda polifonizm» ilmiy tadqiqoti e’tiborga molik.

Polifoniya mohiyatini tahlil qilishda M.Baxtinning polifonik roman nazariyasiga asoslangan tadqiqotchi ilmiy tahlilni uch yo‘nalishda olib boradi: Birinchi yo‘nalish – polifonizmning adabiyotda tutgan urni, bugungi milliy adabiyotga ta’siri; ikkinchi yunalish - polifoniya ruhida yozilgan asarlarni o‘qish, tushuntirish, tahlil qilish jarayoni o‘zbek o‘quvchisi uchun qiyin kechayotgani, ba’zan tasvirlarning, tavsiflarning, timsollarning, ramzlarning, ichki ma’noning, asar qurilmasining, ruhiy kechinmalar hisobiga qurilgan drammatizmning, detallar ishtiroki va xizmatining qay tarzda zarurligini to‘la anglab yetmayotgani, bu hol sharqona obrazli tasvirga o‘rgangan o‘zbek o‘quvchisini zeriktirib, toliqtirib qo‘yayotgani va buning orqasidan ushbu yangi adabiy hodisalarga baho berishda, anglashda turli tushunmovchiliklar paydo bo‘layotganini hisobga olib, bevosita asarlarga murojaat qilib, baholi qudrat tadqiq etish; uchinchi yo‘nalish – polifonizm muammosining bevosita o‘zbek adabiyoti janrlarida qay tarzda namoyon bo‘lganini tadrijiy tarzda o‘rganish³.

Ushbu tadqiqot o‘zbek adabiyotshunosligida polifonik talqin muammolarini ilk bor ilmiy tadqiq qilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Polifonik talqin muammolarini F.Dostoyevskiy estetik qarashlari va tasavvuf falsafiy fikrlari bilan qiyosan tadqiq qilgan adabiyotshunos polifonik istilo, fanda XX asrning birinchi yarmida M.Baxtin tomonidan kashf etilgan bo‘lsa-da, aslida polifonik ko‘povozlilik milliy adabiyotimizda tasavvuf adabiyoti, Alisher Navoiy she’riyatiga (XV asr) ham xos ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

³ Нурматов А. Бадий асарда полифонизм. Филол. фан. номз. дисс. Самарқанд, 1996.

2-fasl. O‘zbek romanchiligida yangicha tamoyillarning shakllanishi.

Mustaqillik arafasida, ya’ni XX asrning 80-yillarida o‘zbek romanchiligi katta o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. M.M. Do‘st, T.Murod, X.Do‘stmuhammad, O.Muxtor, X.Sulton kabi nisbatan yosh avlod vakillari tomonidan adabiyotimizga yangi epkinlar olib kirildi. Ular yaratgan romanlarda alohida olingan insonning dard-u g‘amlari, o‘y-fikrlari, kechinma va orzulari talqin etila boshladi-ki, janr rivojida bu o‘zgarishlar keyingi yillar o‘zbek romanchiligi taraqqiyotini belgilab berdi.

Istiqloldan so‘ng o‘zbek romanchiligi asosan ikki – ananaviy va noananaviy romanlar yo‘nalishida rivojlandi. Har bir adabiyotda bo‘lgani kabi o‘zbek romanchiligi ham o‘tish davri muammolaridan mustasno bo‘la olmas edi. Shu sababdan milliy istiqlol davrining birinchi yillari o‘zbek romanchiligida muayyan deqsinishlar bo‘lib turdi. Roman janri tadrijiga nazar tashlasak, rus va g‘arb adabiyoti romanchiligida ham aynan o‘tish davrlarida roman inqirozi muammosi yuzaga kelganiga amin bo‘lamiz. Agar adabiyotshunos Ye.Dobrenkonning «roman krizisi – bu aslo janr tanazzulini bildirmaydi, balki bir davrdan ikkinchi bir davrga o‘tish oralig‘idagi muayyan bir tayyorgarlik davri» degan mulohazalarini nazarda tutsak, o‘zbek romanchiligida zohir bo‘lgan ba’zi bir noaniq holatlar o‘zbek adabiyotshunosligida ham roman janri xususidagi bahs va munozaralarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan roman janri dinamikasida namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu jarayonning o‘zi roman janrining ichki evrilishlarini tahlil va tadqiq etish orqali roman jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasini aks ettiruvchi asosiy komponent ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, XX asrda qayta va qayta ko‘tarilgan roman janri xususidagi bahs va munozaralar, tahlil va taxminlar hamda tadqiqotlar roman tabiatidan kelib chiqib bildirilgan bo‘lishi bilan birga, jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasi, uning botiniy evrilishlari, inson va jamiyat, tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat, bir-birini anglash yoki

begonalashuv sabablari, ularning o‘zaro anglash jarayoniga ijobiy yoki salbiy taʼsirini ko‘rsatuvchi omillar tahlilidir.

Romanda talqin etilgan g‘oya, romanga xos tafakkur milliylikdan umumbashariy mezonlar qadar ko‘tarilmas ekan, romanlarning o‘qimishlilik darajasi milliy chegara doirasida qolib ketaveradi. Shunga binoan milliy istiqdol davrida yaratilgan romanlarni avvalo milliylik mezoniga ko‘ra, jahon romanchiligining ilg‘or ananalaridan kelib chiqib tahlil qilsak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Ijodkor shaxs birinchi navbatda insonni o‘zligidan ayirgan mustabid tuzumni, ijtimoiy voqelikni ko‘ngil prizmasidan o‘tkazadi. Buning natijasida anglash jarayoni kechadi. Bu jarayon ijodkor ongida yuz berajak evrilishlarga olib keladi. Adabiy jarayonda yuz beradigan silsila – bir vaqtda muayyan bir mavzu yuzasidan adabiyotda mavjud janrlarda bir guruh ijodkorlarning asar yaratishlari natijasida yuzaga keladi. O.Muxtorning «Ming bir qiyofa»», «O‘lmagan jon» asarlarida, T.Murodning «Otamdan qolgan dalalar»i, «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» romanlarida, Sh.Xolmirzayevning «Olabo‘ji»sida, A.Saidning «Besh kunlik dunyo»sida aynan yaqin o‘tmish sintez qilindi, sobiq ittifoqchilik sir-asrorlarining «avra-astari» ochib tashlandi. Mazmunan yaqin o‘tmishdagi xalq taqdiri – kechmishi badiiy talqinga jalb etilar ekan, voqelikni yozuvchi qanday tafakkur etsa, badiiy ijod shunday munosabat natijasida yuzaga keladi. Tasvir obektiga yozuvchi individual uslubidan kelib chiqib yondoshadi. Shunga muvofiq, yozuvchining tafakkur tipiga monand badiiy metod shakllanadi. Bu davr o‘zbek romanchiligida ham realistik va ham romantik adabiy metodlar amal qilishi bilan birga, bu ikkala metodning sintezlashgan turi shakllandi. Ayni paytda, ular ichki tamoyillar bo‘yicha ham tasniflanadi, yangi realistik yo‘nalishda yaratilgan romanlar tasnifiga ko‘ra falsafiy, psixologik, ijtimoiy, avtobiografik, tarixiy, sarguzasht, detektiv, ilmiy-fantastik, yoki ijtimoiylik nuqtai nazaridan ijtimoiy-falsafiy yoki ijtimoiy-psixologik bo‘lishi mumkin.

Ijodkor shaxs ongida biron-bir falsafiy mushohada tug‘ilib g‘oya darajasida rivojlangunga qadar muayyan bir fursat, oraliq zarur, bazan bu oraliqni «yozuvchi

jim bo‘lib ketdi» deb atashadi, aslida esa bu yashirin ijodiy falsafiy mushohada davri. Boshqa bir ijodiy jarayonga o‘tish oldidagi ijodiy tayyorgarlik. Bu holat ko‘proq, o‘tish davriga xos muammolar natijasida yuzaga kelgani sababli milliy istiqlol davrining birinchi yillari o‘zbek romanchiligida ijodiy «jimjitlik» holati yuz berdi. Aynan mana shu davrda yozuvchilarimizning badiiy tafakkur tipi shakllandi. Milliy istiqlol davri romanlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, har xil «izm»lar ta’siridan ozod bo‘lish o‘zbek romannavisi uchun oson kechmadi, shu sababdan ham muayyan badiiy ijod metodining shakllanishi sermashaqqat badiiy evrilishlar ta’sirida kechdi.

XX asr romanchilik taraqqiyoti nuqtai nazaridan badiiy ijod olamida eksperimental asr bo‘ldi, desak, xato qilmaymiz. Metodlar xilma-xilligi, adabiy yo‘nalishlar o‘zgaruvchanligi, uslubiy yangilanishlar ko‘pligidan nafaqat badiiy ijod ahli, balki adabiyotshunoslar ham terminlar «plyuralizmi»dan ba’zan to‘g‘ri xulosalar chiqarishda birmuncha ziddiyatli vaziyatlarga tushib qolishlari aniq. O‘tgan asrda yuz bergan siyosiy ixtiloflar va bo‘hronlar oqibatida dunyoda juda keskin o‘zgarishlar yuz berdi, ijtimoiy-siyosiy davlat boshqarilishi dunyo bo‘yicha ikki katta bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishda olib borildi. Shunga ko‘ra har bir jamiyatning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi bo‘lmish roman janri ham har bir jamiyato‘ziga xosligini e’tirof etgan holda rivojlandi.

XX asr taraqqiyoti shu qadar keskin va ziddiyatliki, bu hol albatta inson ongida, tafakkurida aks etmay qolmadi. Inson hayotida kechayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar uning tafakkurida norozilik kayfiyatini yanada kuchaytirdi. Moddiy dunyo birlamchi, ong ikkilamchi deya butun olam uzviyligini inkor etgan, so‘ng esa hayot qonuniyatini anglab etgan inson bir-biriga monand dunyo mantig‘idan to‘g‘ri xulosalar chiqara boshladi. Ziddiyatlar tobora kuchaygan jamiyat badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida yangi romanlar yuzaga keldi. Ong talqini, ongda kechayotgan evrilishlarni anglash oson kechmadi. Bunday evrilishlar XIX asrda avvalo psixologik roman (M.Y.Lermontov, V.Gogol), so‘ng esa polifonik roman (F.M.Dostoyavskiy) janrida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, XX asr

boshlarida yangicha tafakkur talqini – modern yuzaga keldi. Modern romanlarining yaratilishi bilan roman janri tarixida yangi bir tamoyil – modernizm boshlandi.

Yangi davr romanchiligining shaklan va mazmunan yangilanayotganligini roman janrining ichki talabidan kelib chiqqan zarurat deb tushunish kerak va bu tabiiy hol. Ko'pgina yozuvchilarimizning (Sh.Xolmirzaev, O.Muxtor, X.Dostmuhammad, Sh.Bo'taev, T.Rustam, U.Hamdani, I.Sulton) romanlarida badiiy talqin ko'p ovozlilik darajasiga ko'tarilishi, noanaviy talqin uslublarining qo'llanilishi bugungi kunda o'zbek romannavislari tomonidan polifonik, hamda modern romanlariga xos badiiy me'yor hamda mezonlar o'zlashtirilayotganidan dalolat beradi. Aynan mustaqillik davrida J.Joys, F.Kafka, G.Markes kabi yetuk g'arb romannavislari ijodlariga bo'lgan qiziqish, ular qo'llagan badiiy talqin uslublarining tahlili – o'zbek romanchiligini jahon romanchiligining ilg'or ananalari asosida yuksaltirish uchun intilishdir. Shu sababdan ham mustaqillik davri o'zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillarini aniqlash uchun yozuvchilarimiz ijodiga ta'sir o'tkazayotgan omillar xususida so'z yuritishni lozim topdik.

Yangilanayotgan jamiyatda milliy istiqlol ta'sirida inson ongida, ruhiyatida kechayotgan poklanish jarayoni romanda o'z inikosini topar ekan, tabiiyki, inson hayoti o'ziga xos murakkabliklari, ziddiyatlari bilan birgalikda talqin etiladi. Bu davr romanchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, nafaqat anaviy, balki noanaviy romanlarda ham romanga xos tafakkur mezonlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan.

Albatta, noanaviy roman ham badiiylik nuqtai nazaridan roman janri talablariga javob berishi shart. Ammo bundan roman qandaydir bir etalon sifatida yaratiladi degan noto'g'ri xulosa kelib chiqmasligi kerak. Har bir roman yaratilishi jihatidan usluban yangi, betakror bo'lishi bilan birga, o'zidan oldin yaratilgan roman janriga xos badiiy komponentlarni o'zgargan, rivojlangan yoki boshqa shaklda o'zida mujassam etib, romanning janr taraqqiyotini ham ta'minlashi kerak. Janr taraqqiyotining progressivlik yoki regressivlik xususiyati esa har bir roman

individualligi bilan bog‘liq. Romannavisning vazifasi roman badiiyatini ta’minlash bilan cheklanmaydi, u jamiyat taraqqiyot tadrijini falsafiy mushohada qilish va mantiqiy anglash orqali romanga badiiy talqin uchun jalb etilayotgan jamiyat tafakkuriga monand romaniy tafakkurni yaratadi.

Keyingi yillar o‘zbek romani janr dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, biz shartli ravishda noan’anaviy deb atagan romanlar va an’anaviy romanlar o‘rtasida qarama-qarshi, ziddiyatli, bir-birini inkor etish kabi badiiy uslub komponentlari yuzaga kelgani yo‘q. Badiiy asar, to‘g‘rirog‘i, asar tahlilidagi bunday badiiy va ilmiy nomutanosibliklar XX asrda realizm va modernizm, modernizm va sotsiorealizm kabi metodlar qiyosida yuzaga kelgani sir emas.

Janr tadrijiy tarixi shuni ko‘rsatadiki, roman o‘z taraqqiyoti jarayonida bir davrdan (yo‘nalishdan) boshqa bir rivojlangan davrga(yo‘nalishga)o‘tar ekan, o‘zigacha bo‘lgan mustaqil yo‘nalish yoki yo‘nalish tamoyili roman tafakkurini namoyon etishda biron-bir badiiy komponentga aylanadi. Aynan bunday uslubiy yangilanish so‘nggi yigirma yillikdagi o‘zbek romanlarining shakllanishida yaqqolroq sezilmoqda. O.Muxtorning «Ming bir qiyofa», «Ko‘zgu oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba», X.Do‘stmuhammadning «Bozor», T.Rustamning «Kapalaklar o‘yini», U.Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Na’matak”, I.Sultonning “Ozod”, “Boqiy darbadar” kabi romanlarida g‘arb modern romanlari poetikasiga xos bo‘lgan qahramon ongida kechayotgan evrilishlar talqini o‘zbek romanlariga roman tafakkurini badiiy inikos qilishda yozuvchi qo‘llagan uslublardan biriga aylanmoqda. Zikr etilgan romanlar poetikasining o‘ziga xosligi nafaqat voqelikka yoki insonga nisbatan talqin munosabatining o‘zgarganida, balki roman tashqi va ichki tuzilishi, shu bilan birga, stilistikasining ham o‘zgarganidadir.

Hozirgi davr romanchiligida kechayotgan badiiy evrilishlar adabiy jarayonning birmuncha faollashganidan darak berish barobarida, roman dinamikasiga ham ta’sir qilmay qolmaydi. Romanchilik va uning tegrasida

kechayotgan bahs-munozaralar, ilmiy tadqiqotlar⁴ tahlili taraqqiy etgan jamiyatlarda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizning ham badiiy-estetik tafakkuri darajasini aynan roman inkishof etishi, bugungi muttasil o'zgarib borayotgan adabiy jarayonda roman taqdiri yozuvchilarimiz uchun ham, adabiyotshunoslarimiz uchun ham eng muhim muammo bo'lib qolaverishini ko'rsatadi. «Janr o'z davriga va o'z yozuvchisiga monand bo'ladi: o'zi mansub davrni nafaqat tasvirlaydi, balki unga aniqlik ham kiritadi»⁵, - deb ezadi adabiyotshunos N.Dulova. Demak, istiqlol davri romanchiligi nafaqat o'zi mansub davrni tasvirlaydi, balki davrga xos tafakkur roman tafakkuri sifatida shakllanadi. Turli-tuman o'zgarishlar, iqtisodiy muammolar, inson ongida yuz berayotgan o'zlikni anglash yo'lidagi silsilalar qahramon «men»i bo'lib roman tiliga ko'char ekan, kuz havosiga o'xshash o'zgaruvchan inson tabiatini tasvirlash ananaviy romanlar poetikasi ramkasiga sig' maydi, shu sababdan ham yozuvchilar murakkab qurilishli roman poetikasiga murojaat etadilar. Bu jarayon, ayniqsa, XX asrning oxirgi yigirma yilligida birmuncha izchillashdi.

O'zbek romanlari shaklan yangilanibgina qolmay, balki, eng muhimi tafakkur mantiqi jihatidan mohiyatan ham o'zgarmoqda. O'zbek romanchiligining bo'y-bastini ko'rsatib turgan otaxon yozuvchilar safiga yosh romannavislar qo'shilmoqda. Noananaviy o'zbek romanlarining yaratilishi, tabiiyki, tobora faollashib borayotgan adabiy jarayonga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shundan kelib chiqib, U.Hamdani, I.Sulton romanlari misolida milliy istiqlol davri romanchiligida shakllanib, muayyan bir poetikaga ega bo'lib borayotgan noananaviy uslubda yaratilayotgan roman janri yangilanishiga e'tiborimizni qaratmoqchimiz.

Vaqt tingani yo'q, zamonlar o'zgarmoqda. Bu yangilanishlarga hamohang tarzda odamlar ongi ham o'zgarmoqda. Kechagina shov-shuvlarga sabab bo'lgan

6 Мирзаев И.О. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек романларининг тараққиёт йўллари. Филол. фан. д-ри дисс. - Т., 1991; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиклол мафкураси. Филол. фан. д-ри дисс. автореф. - Т., 1993; Жўраев Т.С. Онг оқими ва тасвирийлик. Филол. фан. номз. дис. - Т., 1994; Норматов У. «Ўттишдан эртақлар» ва абсурд // Ўзбекистан адабиёти ва санъати, 2000. № 29; Улуғ А. Ўзгараётган адабиёт манзаралари. // Шарқ юлдузи. – 1999. №6.

7 Дулова Н. Судьба жанра в литературном процессе. Изд-во Иркутского университета, 1996. с. 5.

asar bugun o'quvchini qoniqtirmasligi mumkin. Bu bilan biz aslo vaqt o'tishi bilan har qanday asar eskiradi, iste'moldan chiqadi, demoqchi emasmiz. Aksincha, badiiy asarning haqiqiy qiymatini ba'zan vaqt masofasi ham belgilaydi. Roman tafakkuri taklif etgan falsafiy bahsga o'quvchi tayyor bo'lmagan aksar hollarda shunday jarayon kechishini Joys, Kafka, Sarrot romanlarining taqdiridan ham anglash mumkin.

Milliy istiqlol davri romanchiligimizda ravnaq topayotgan ananaviy romanlar qatorida, noananaviy romanlar ham taraqqiyot sari yuzlangan ekan, yozuvchilarimiz o'z individual uslublariga ega bo'lish bilan birga, har bir roman ham individual bo'lishini anglab etdilar. Roman hech bir qolipga, andozaga tushmasligi noananaviy romanlar misolida ham ochib berilar ekan, tub islohotlar ta'sirida yangilanayotgan zamonda yangicha ruh, yangicha tafakkur hosilasi o'laroq, yangi-yangi romanlar yaratilishi tabiiydir. Negaki, har bir davr o'z talab va ehtiyojiga ko'ra jamiyatda badiiy-estetik tafakkurni shakllantiradi. Xuddi shu o'rinda X.Do'stmuhammadning «Bozor», U.Hamdamning «Muvozanat», «Isyon va itoat», «Na'matak», I.Sultonning «Ozod», «Boqiy darbadar» romanlari yangi shakllanib kelayotgan romaniy tafakkur hosilasidir. Chunki har bir yozuvchi qo'llagan uslub individual bo'lishi bilan birga har bir roman ham o'ziga xos poetik tizimni namoyon etadi. Romanlarning konseptual g'oyasini ochib berishda asosan retrospektiv va assotsiativ sujetlar qo'llangan bo'lib qahramonlarning botiniy olamini, qalb kechinmalarini badiiy talqin etishda ularning keng imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Romanchiligimizda noananaviy romanlarning yuzaga kelishining eng muhim omili janrning tadrijiy taraqqiyot talabi bo'lib, janrga xos yangilanish, isloh qilish, tarixiy poetika komponentlarini namoyon etish o'zbek romaniga ham xos xususiyatdir. Bu nafaqat o'zbek romani dinamikasini, umuman, roman janrining tadrijini ifodalaydi.

Hozirgi o'zbek romanlarida noananaviy talqin uslublarining qo'llanilishi o'zbek romani poetikasining badiiy yangilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. E'tirof etish kerak, noananaviy talqin yo'llarining shakllanishida nafaqat g'arb

modern romanlarining, balki mumtoz o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi ananalarining ham ta'siri e'tiborga molik. "Ko'zgu oldidagi odam", «Bozor», "Isyon va itoat", "Na'matak", "Ozod", "Boqiy darbadar" romanlarida falsafiy mushohada, «Ming bir qiyofa», «Tepalikdagi xaroba»da psixologik tahlil, T.Rustamning «Kapalaklar o'yini»da absurd g'oya bugungi kun misolida ochib berilishi romanchiligimizda noan'anaviy uslublarning yuzaga kelishida biz yashayotgan voqelik ham alohida o'rin tutishini ko'rsatadi.

IKKINCHI BOB
“BOQIY DARBADAR” VA “NA’MATAK” ROMANLARINING
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1-fasl. Dunyoni ko‘rish va aks ettirishda mini roman imkoniyatlari.

Zamonaviy adabiyotda inqiroz hukm surayotganligi, hatto, bu inqiroz to‘satdan yuz beradigan o‘zgarishlar tufayli emas, balki o‘zining obyektiv omillariga ega tizimli tarzda inqiroz ekanligi bor gap. Bu – manzil-madorasi tomon tobora shoshilayotgan inson ongidagi inqirozdir. Modernizm deysizmi yoki postmodernizm, zamonaviy adabiyotning hech bir yangi adabiy oqimi inson – kitobxonga, xuddi XIX, XX asrda bo‘lganidek, avvalgi ma’naviy-estetik ozuqani bera olmayapti. Bundan ham yomonrog‘i, adabiy “izmlar”ning barchasi sof individualizmni peshlash orqali butun insoniyatni umum qabul qilgan qonunlardan uzoqlashtirib, bashariyat uchun qoida tusini olgan ma’naviy ahkomlardan ayro tushirmoqda. Bugungi inson adabiyotda tasvirlanayotgan jamiyatdagi yechilmagan muammolar oldida o‘zini yolg‘ iz his qilayotir. Badiiy asarlarda tasvirlanayotgan globallashtirish, urbanizmga tayanadigan turmush tarzi kitobxon ongida yolg‘izlik, g‘am-g‘ussa, beqarorlik hissini tug‘dirib ulgurdi.

Zamondosh yozuvchilarimiz orasidan barmoq bilan sanarlilarigina adabiyotdagi umidsizlik, ruhiy tushkunlikni “abadiy mavzularning” nafaqat mazmunini, balki shaklini o‘zgartirish hamda yangi mavzular topish orqali yengib o‘tishga umid qilganlari holda ijoddan to‘xtaganlari yo‘q. Buning uchun ular kerak bo‘lsa badiiy matnlarning hajmini imkon qadar qisqartirishga yoki badiiyat hodisasini iloji boricha siqiq va lo‘nda yaratish harakatiga tushganlar. Agar keyingi yillarda o‘zbek adabiyotida jahondagi boshqa milliy adabiyotlarda uchrayotgan shaklan ixcham romanlar bo‘y ko‘rsatayotgan ekan, bunda yozuvchilarni modaning ketidan quvishda yoki alohida ajralib turish ilinjida qilinayotgan harakatda ayblash o‘rinsizdir. Ijodkorlarimiz zamonaviy adabiyot biror bir poetik fikrni estetik fahmi yetarli kitobxon og‘ziga obdon chaynab solib qo‘ymasligini

yoki savollarning barchasiga bir xil javob berishdan qochishi kerakligini yaxshi tushunadilar. Barcha anglab turibdiki, mini roman – hajman o‘lchaganda hikoya bo‘yi keladigan romanlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolayotgani yo‘q.

Hozirgi paytda Ippolit (Dostoyevskiy qahramoni) qatori fozil odamlar jamiyati haqida falsafiy orzular surishning iloji yo‘q. “Bugungi odamni hayratlantirish – hayratlanarli darajada mushkul ishga aylandi” (Q.Yo‘ldoshev). To‘plangan bilimlarning sifati va hajmi turli ilmiy jarayonlar (misol uchun, Yevropa olimlari urinib ko‘rgan, oxir zamonni yaqinlashtirib qo‘yadigan kollayder qurilmasini loyihalashtirish va ishga tushirish) haqida yoxud fantastik mavzularda asar yozish imkoniyatini qisqartirib yubordi. Barchasini chetdan turib kuzatishga majbur inson ongida, istasa-istamasa, fatalizm va peshonadagini ko‘rishga mahkumlik hissi uyg‘onmoqda. Dunyoning turli burchaklarida uchrab turgan har turli rangli inqiloblar-u terrorizmgacha bo‘lgan marginal xurujlar aynan shuning oqibati, desak yanglishmagan bo‘lib chiqarmiz, ehtimol.

Adabiyot bir chetda qo‘l qovushtirib turgani yo‘q, ammo u ushbu hodisalarni mexanik tarzda qog‘ozga muhrlamoqda. Zamonaviy adabiyotning vazifasi esa insonga xom xayolni, illyuziyani, hayotga ishonch va oddiygina umidni qaytarishdir. Aks holda bundan keyin vaziyat yaxshi tomonga o‘zgarmasligi va adabiy asarlar sariq matbuotdagina uch beradigan keng tarqalgan aksessuarga aylanib qolishi hech gap emas. Bugungi Yusufbek hojilar tilidan aytganda, “avlodlariga faqat reklama qoldiradigan ajdodlar sha’niga maqtovlar yog‘ilmasa kerak”, har holda.

Bugungi adabiy jarayondagi depsinishlar-u olg‘a siljishlarni unda kechayotgan o‘tish qiyinchiliklariga yo‘yadigan bo‘lsak, adabiy janrlarning o‘z sathidan og‘ishiga, qorishuviga, sinteziga ko‘nish yoki hech bo‘lmaganda, lo‘ndalashuviga yo‘l ochish lozim. Xo‘sh, bugun milliy adabiyotimizda urf bo‘la boshlagan mini romanlar yuzaga kelishining tub sabablari nimada? Nima uchun yozuvchilar romandek yirik epik janrning hajmini toraytirishga, uning an’anaviy ko‘rinishlarini o‘zgartirishga urinishmoqda? Darhaqiqat, hikoya-roman, roman-

qissa, roman-hikoya va hokazolar kelajakning emas, balki bugunning voqeligi bo‘lib turibdi. Internet va uyali aloqaning paydo bo‘lishi ortidan yuzaga kelgan fikrni qisqa va aniq yetkazish (xususan, mablag‘ ni tejash) ehtiyoji tufayli ko‘pchilik bu taxlit transformasiyaga ajablanmasligi ham mumkin. Matn maydonining tobora kichrayishi, asosiy e‘tiborning muayyan mazmun konsentrasiyasiga qaratilishi, tilning metafora evaziga sayqallanishi janrlar sintezi va transformasiyasiga, roman ichida har turli mif va rivoyatlarning, o‘zidan avvalgi asarlarning qo‘yqasini (qaymog‘ ini) berishga bo‘lgan intilishlarga yo‘l ochaveradi. Multiplikasiya, kinematografiya unsurlarining qorishig‘i, montaj va kollaj usullarining qo‘llanilishi zamonaviy adabiyotning ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda (Ayni jihatlar istiqlool arafasida “Lolazor”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Yozning yolg‘ iz yodgori”, “Otamdan qolgan dalalar” romanlarida to‘laligicha bo‘y ko‘rsatgan edi).

Bu haqda mulohaza yuritganda, bugungi davr kishisining – zamondoshimizning kundalik turmushini ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazganimizda ko‘p so‘zli roman o‘z missiyasini ado etib bo‘lganligi haqidagi fikrlarga qo‘shilgining keladi, kishi. Rostdan ham, hozir roman uchun asosiysi – hissiyotlilik, jo‘shqinlik, siriqlik. Hatto interyer va psixologizm tasviri ham uzundan-uzoq tavsiflardan xoli tarzda, qisqa ekspozisiya hamda monolog va dialoglar orqali berilishi shart. Bugungi kitobxonni “kosa tagidagi nimkosa” bilangina qiziqtirish, kitob o‘qishga chorlash mumkin bo‘lib qoldi.

To‘g‘risi ham, “turmushning ayovsiz yengilliklari”dan bezib ketgan bugungi odam yonidagi hamshirasiga aytmagan hasratlaridan internetda og‘iz ochayotir, eng yaqin kishisiga aytishdan uyalgan fikrlariga boshqalar nima derkin, deya sahifasini yangilayotir. Yana bir gap: munaqqid-adabiyotshunoslardan tortib, kitobxonlargacha barcha-barcha ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirgan bir paytda ijodkor odam jild-jild asarini qo‘ltiqlab nashriyotda o‘tirsam, kulgiga qolishini anglab turgani ayanchli. Shu jihatlarni ko‘rib, his qilib turgan vijdonli odam borki, Feysbook, Instagram, Twitter, Vats App, Vayber kabi ijtimoiy tarmoqlarda o‘z

ijodini o‘zi PR qilishga kirishgan ijodkorlarimizni qoralashga haqqi yo‘q, aksincha, ularni qo‘llab-quvvatlashi, hech qursa sahifasida chiqqan asariga “like” tugmasini bosish orqali olqishlashi shart.

Adabiyotning kelajagi qanday bo‘ladi, degan savolga javob izlansa, bo‘lg‘usi adabiyot (bir paytlar R.Bart “muallif o‘limi”ni isbotlaganidek) endilikda muallif anonimligi va shartlilikiga intilaveradi, matnlarni “miks” qilish oddiy holga aylanadi, zamonaviy radiolarda bo‘lganidek, adabiyotda ham adabiy didjeylar paydo bo‘ladi, deging keladi. Masalaga bunday yondashuv shuni ko‘rsatadiki, irfoniy mavzudagi materialni eskicha ifoda tarzi orqali bugungi kitobxon ongida qayta tiriltirish amaliyoti o‘zini oqlamaydi. Undan ham battari: fahsh, to‘shakdagi beqiliqliklar, beparda aljirashlar-u yaltiroq qog‘ozga o‘ralgan o‘tkinchi kechinmalar tasviri vaziyatni battar chigallashtiradi.

Sinchiklab razm solinsa, bularning barchasi zamonaviy adabiyotning uch ko‘rsatayotgan inqirozidan darak berib turgan majburiy ehtiyojdir. Ammo adabiyotdagi turg‘unlikni yengib o‘tish yo‘lida uchraydigan bunday “imkoniyatlar” bilan bir qadar hisoblashmaslik ham mumkin emas.

Hozirgi vaqtda davriy matbuotda “yosh avlod” masalasi va ular yaratgan asarlarning mag‘zini chaqishga bo‘lgan urinishlar sifatida ko‘plab adabiy suhbatlar uyushtirilayotir. Ya’ni XX asr adabiy yo‘nalishini belgilovchi jihatlar, asr ibtidosidan to shu kunimizgacha bosib o‘tilgan yo‘l to‘g‘risida aniq bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Buni "izm"lar o‘zgarishi, davr va tuzum yangilanishi natijasi zimnida kuzatganimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Ammo yuqorida aytanimizdek, adabiyot qaysi davr va zamonda yashamasin, hamma vaqt inson va uning “orzu-umidlarini”, “quvonch-u tashvishlarini” inkishof qilishda davom etaveradi. Negaki, inson o‘ziga yo‘l axtarar ekan, ilk bor adabiyot ko‘chasidan o‘tadi, o‘zining qalbiga hamohang jihatlarni yuragiga singdiradi. Busiz hayoti ruhsiz va tussiz bo‘lib qolishi turgan gap. Ayniqsa, shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo qiyofasi, uning har bir a‘zosi ongli ravishda adabiyot atalmish jumboq sirlaridan voqif bo‘lishga intilaveradi.

Jamiyat hayotidagi tub evrilishlarni to‘laqonli his qilib, uning a‘zolari qalb olamining puchmoqlariga nazar tashlab, “uchinchi ming yillik insoni kim?”, “u nima bilan band?” degan savollarga javob axtarishmoqda iste’dodli adiblarimiz. Turfa xil ne‘matlar oldida chorasiz qolgan bani bashar o‘zining murod-u maqsadlariga to‘laligicha erishmoqdami? Dunyoga kelib, aqalli bir ishni bajarish istagida yonayotgan qalb egasi haqiqatdan ham ezgulik mayog‘ ini tutganmi? Uning avlodi-chi? Umuman bugungi “yangi inson” deb nomlanayotgan insonning yuragida nima bor? Hamon o‘tlig‘ yurak bilan hamma insonlarni seva biladimi? Milliy urf-odat, misqollab yig‘ ilgan qadriyat haqida o‘ylashadimi?

Iste’dodli adiblarimiz jahoniy asarlar bilan bo‘ylasha oladigan bitiklar yaratish yo‘lidan bormoqdalar. Bir paytlar Shukur Xolmirzayev “mening hamma yozganlarim dunyo hikoyachilik maktabiga bo‘ylab yozilgan, hatto Xemingueylar ham menchalik xo‘p va ko‘p yozmagan” deya “nokamtarlik” qilganidek, hozirgi nosirlarimizni ham adabiyotimizni jahonga olib chiqish istagi to‘lqinlantirayotgan bo‘lsa, adab emas.

Binobarin, 2011- yilda yosh, iste’dodli yozuvchi Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarining dunyo yuzini ko‘rishi adabiy hayotimizda katta yangilik, voqea bo‘ldi. Bu – birinchidan, romandek yirik janr o‘lchamlaridan ancha kichik bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek nasrida hali shu paytgacha uchramagan mini romanning adabiyotimizga kirib kelishida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, badiiy imkoniyat va qamrov ko‘lami bilan bemalol roman deb atasa bo‘ladigan yaratilgan dunyoga kelganligida ko‘rinadi.

“Boqiy darbadar”ning janrini muallifning o‘zi roman deb belgilagan. Ehtimol, ayni shu hol ta’bi va didi an’anaviy romanlar ruhida tarbiya topgan o‘quvchida e’tiroz uyg‘ otar ham. Axir, bunda yaxlit bir voqea bo‘lmasa, ko‘p planli syujet asosida voqelikning keng epik manzarasi tasvirlanmagan bo‘lsa, markazida qahramon turmasa... – nimasi roman?!.. Jahon adabiyoti tajribalaridan, xususan, G‘ arbda yarim asrlar ilgari boshlangan “yangi roman” bobidagi izlanishlardan ozmi-ko‘pmi xabardor o‘quvchida bunday e’tiroz tug‘ilmasayam

kerak. Zero, “Boqiy darbadar”da an’anaviy eposga xos voqeaband syujet o’rnida sirtidan bir-biriga bog‘lanmay turli makon va zamonda, goh reallik gohi xayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo‘lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma’nisi-yu bashariyat taqdiri haqida o‘yga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka – romanga aylantiradi...

Isajon Sultonning ushbu asari an’anaviy yo‘lda yozilmagani shundoq ko‘zga tashlanib turibdi, lekin uni modernizm yo postmodernizmga taalluqli etishga-da qiynaladi, kishi. Modernistik asar deylik desak, unda ham turfa uslublar – ko‘hna diniy rivoyatlardan tortib hozirgi “internet tili”gacha, ham turfa janrlar – qadim diniy didaktikadan tortib urfdagi “boyevik”kacha... quroq-qorishiq birbutunlik kasb etgan. Boringki, postmodernistik asar deb qo‘ya qolay desa, muallif olam-u odam haqidagi o‘y-tashvishlarini ifoda etmoq uchun badiiy model – postmodernistlar inkor qilgan metarivoyat yaratib qo‘ygan...

Nazarimizda Isajon Sulton o‘zi bilgan bizdagi-yu xorijdagi ijodiy tajribalarning barini ichdan o‘tkazib, bugun o‘zini qiynab turgan muammolarning badiiy idroki-yu ifodasi uchun maqbul shakl izlagan, izlanishlari ana shunday shakliy siqqlikka, badiiy sintezga olib kelgan.

Darvoqe, g‘arbda urf bo‘lgan “izm”lar ma’naviyatimiz uchun zararli deguvchilarning tashvishlari, albatta, asossiz emas. Joiz tomoni shuki, I.Sulton o‘sha “izm”lardan maqbul shaklni olgani holda o‘zi milliy zaminda sobit qolgan. Jillaqursa bir jihatni olaylik: postmodern kayfiyat degani millatlar-u milliy madaniyatlar qorishuvini ko‘zda tutadi, shunday zamindan unib chiqadi. Yozuvchimiz esa bu ruh-kayfiyatni butun vujudi bilan inkor qiladi, professor Ziyoning o‘g‘li kabi “o‘zi sevgan, amallaridan O‘zi rozi bo‘ladigan xalq orasida” yaralganiga shukrona keltiradi, ro‘zi mahsharda “o‘z jonajon tuprog‘ida, o‘z jonajon millati bilan birga bo‘lishni orzu qiladi”; Vatanni “iymonining qo‘rg‘oni” deb biladi, “dilining ildizlari shu yer osti buloqlariga bog‘lab qo‘yilganday, uzilsa quriydigandek” his qiladi o‘zini.

Ha, asl ijod, agar u milliy-madaniy zaminda voqe bo'lsa, aslo ko'r-ko'rona taqlid bo'lmaydi. Zero, ijodiy sintez degani bir jihatdan alximiyaga monand: kimyogar turli moddalarni qorishtirib sara oltin olishga intilarkan, singishmagan moddalar cho'kindi bo'lib shishada qolaveradi.

Yozuvchi hayotning ma'nisi-yu bashariyat taqdiri haqida o'yga tolgan, deganda nimani tushunamiz? Axir, inson hayotidan ma'ni izlash so'nggi ikki asr mobaynida adabiyotning markaziy muammosiga aylanmadimi? Ha, hatto modernizmning ayrim oqimlari inson hayotini har qanday ma'nidan ayro tushadi deb da'vo qildi ham, ozmi-ko'pmi kitobxonlar ommasini shu kayfiyatga tushirdi ham. Xayriyatki, islom nuri bilan yorishgan dillar bu kayfiyatni o'ziga sig' dirolmadi, sig' dirmadi. Jumladan, I. Sulton ham. Yozuvchi muammoning ildiziga nazar soladi va ko'radiki, Yaratganidan uzoqlashishi barobari inson hayotining mazmuni yo'qolib boradi.

Shuning uchun ham romanda yaralmish – inson “tangrining irodasiga isyon o'laroq” yaratgan eng oliy mavjudot – klon ham olamning nechog' li mukammal yaratilganini idrok etgach, “mazkur silsila aro o'z o'rnini topishga harakat qiladi”. Ammo hayhot... topmaydi, topolmaydi. Shu bois ham dunyolarga sig' maydi, olamni bunchalar mukammal yaratgan Zotni “izlab topish va butun olam yaratilishining sabablarini O'zidan so'rash uchun” bosh olib chiqib ketadi. U ko'zlagan manzil belgili: izlagani – “Uning irodasiga va mening yaratilishimdan maqsadiga mos... keladigan makon va zamon”. Biroq, hayhot... u tushgan yo'l qayon eltadi, ko'zlagan manziliga yetadimi va yo o'sha mangu darbadarga qismatdosh bo'lib qoladimi?.. Kim biladi, “butun olam ilgarilab borayotgan turli-tuman yo'llar” ning qay biri haq yo'l? Sobit ishonch bilan “qismatimiz shu sahroda yashab Parvardigorga ibodat qilish va ajalimiz yetganida jonimizni O'ziga topshirishdir” deya kundalik yumushlariga mashg' ul badaviylarmi? Va yo yorug' olamga etak silkib, butun borlig'i – qalbi-yu aqli bilan Yaratganga yuzlangan avliyoning yo'limi?..

“Boqiy darbadar” romanida yuqoridagiga o‘xshash kishini o‘ylashga undaydigan, o‘ylaganda ham olam, odam va uning kelajagi haqida qayg‘ urishga chog‘ laydigan ismsiz savollar qo‘yilgan, javob esa imkondan tashqarida, zero, uchinchi parvona misoli “alanga ichiga kirib otash ichra g‘oyib bo‘lgan”gina – biladi va... o‘zi “erishgan bilim haqida gapira olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi”.

Aslida, professor Ziyoning o‘g‘ li aytmoqchi, “tevaragimiz ramzlarga va timsollarga to‘ladir”. Shu ramz-u timsollar “aql qulog‘ iga baland ovoz bilan xitob qilib turibdi”. Biroq biz, biz eshityapmizmi shu xitoblarni?! Mabodo, dovonga ko‘tarilgan sari quloqlar bitgani kabi, bashariyat safida yuksalishimiz barobari “aql qulog‘ i” miz ham bitib bormayaptimi?!..

Qadimgilar adabiyotni tabiatga taqlid deganlar. Chamasi, I. Sulton ham shu yo‘ldan borishni ma’qul ko‘radi – romanni ramz-u timsollarga to‘ldiradi. Bu ramz-u timsollar tafakkurimizga qaratilgan – fikr bilan ularni chaqishimiz tafakkurimizning charxlanishiga xizmat qiladi. Asarni o‘qiganda bir-biridan murakkab savollar ketma-ket qalqib chiqaverar, ehtimol. Lekin ular ichida eng muhimi, bugungi taraqqiy darajasi-yu ertangi imkonlari ufqining chamasidan masrur-u mag‘ rur turgan XXI asr kishisi uchun eng jo‘n va eng murakkab masalalar ochiqlicha qolaveradi. Chunki “dunyodan ketish xuddi unga kelishdek muqarrar” ekan, insoniyat bu olamga kelib-ketishning boisi nimada ekanligi borasida yagona to‘xtamga kelishdan ojizdir.

Roman qatidagi falsafiy qarashlar shu xildagi mangu savollarga javob izlayotgan kitobxon tafakkurida qandaydir ma’naviy qoniqish hosil qiladi. Zero, “ijod harakatdagi jarayon” ekan, millat kelajagini nozik did va kuzatish bilan his etgan muallif talqinlari insonni barkamollik sari qadam tashlashiga undasa, bu o‘z navbatida eng katta savob ish va ma’naviy jasorat namunasi deb tushunish lozim.

Romanda ixcham talqinlararo badiiy yaxlitlik, kompozitsion butunlik bor. Shu bilan birgalikda ijod ahli muayyan g‘ oyani, dilni bezovta etgan his-tuyg‘ uni badiiy shaklda ifoda qilish uchun turli vositalarni qo‘llaydi. Kimdir bir zarb bilan

mo'jazzgina she'r bitib, ko'nglini bo'shatadi; orom oladi. Aynan sun'iylik va zo'rama-zo'raki chiranishlardan uzoq bunday asarlarning umrboqiyligini mualliflarning o'zlari ham yaxshi biladi. Yana kimdir bevosita qalbining oromi uchun allaqanday hodisani nasriy yo'sinda tasvirlaydi. Tabiiyki, yaqqol ko'zga tashlangan va muallifning ko'ngliga yaqin bo'lgan asl qahramonlar boshqalar qalbidan joy oladi. Qaysidir yozuvchi o'sha qahramon uchun o'nlab sahifalar qoralab, mukammal qayofasini chizishga erishsa, boshqa biri ko'pchilik e'tiboriga tushgan qahramonlarni mayda shtrixlar yordamida qandaydir badiiy asosda ma'naviy-ruhiy jihatdan nisbatan mukammal holatda sahnaga olib chiqadi. Shunday ekan, yozuvchi izlanishlari xususida shu kabi mulohazali fikrlarni yuritishga muayyan asos bera olganligi bilan ham qadrlidir. Boshqacha aytganda, inson jamiyat va tabiat mahsuli. Bir qadami jamiyat atalmish zamindan suv ichsa, ikkinchisi bevosita tabiat bag' riga qadalganida ko'rinadi. Negaki, zamonlar o'tadi, qarashlar o'zgaradi, millat tafakkurida mislsiz evrilishlar yuzaga keladi, baribir insoniyat hamisha insonlik sha'ni uchun azal-u abad kurashib keladi. Ko'rinadiki, har qanday badiiy tafakkur mantiqida inson shaxsi va uning orzu umidi, ilmi, diyonati, insoniy fazilati, yurish-turishidan, hatto kiyinish madaniyati-yu muomala madaniyati ham qatma-qat singdirilgan bo'ladi. Aslida ham shunday. Insoniyat ibtidosidan, g' orlarda umrguzronlik qilib yurgan paytlarida san'atni, soylarning shildirashiga qarab, musiqani, ya'ni ohangni, qo'rqinchli hayvonlarning suvratini ko'rib toshlarga rasmlarni chizishni, o'sha o'rgangan narsalarini qudratli vosita tili orqali tushuntirishni bilib olganlar. Bu esa tadrijiy takomillashib, yillar o'tgani sayin rivojlanib, qadriyat darajasiga ko'tarila boshlagan. Shuningdek, shu bugunimizga kelib, insoniyat tamaddunining nayranglari quchog' ida qolib, ruhiy bezovtalik og' ushida qalbi tirnala boshladi. Bu kabi muammolarni badiiy so'z vositasida idrok etish taomili kuchaydi.

Romanda insonning "Xudoning ishiga aralashuvi" qurboniga aylangan shaxs fojeasi bilan bir qatorda inson ichki olamidagi ziddiyatlar hayot haqiqatidan kelib chiqib tasvirlanganligini kuzatishimiz mumkin. Adabiyotshunos Bahodir

Sarimsoqov qayd etganidek: “Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman oʻzgarishlar va kechinmalarni ijodkor oʻz ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, gʻ oyaviy maqsadi orqali sintez qilish oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir xilqat, yangi bir kashfiyotdir”.

«Boqiy darbadar» romanida abadiy yoshlik, abadiy qarilik mavzusi keng koʻlamda oʻrganiladi. Isajon Sultonning nazarida abadiy yoshlik aslida abadiy qarilikdir. Asarni oʻqiy boshlar ekanmiz, ozgina oʻqigach, muallif oʻquvchi qiziqib koʻrmagan, hatto eshitmagan narsalarni qalamga olganligini, bu asarni tushunish uchun bizlardan anchayin tayyorgarlik, chuqur bilim zarurligini sezamiz. Avstriyalik yozuvchi Frans Kafka odam salomatligini yoʻqotishi evaziga, uyqusidan kechib yozgan asarlaridan hech qanday moddiy foyda koʻrmasligini taʼkidlaydi. Ispan faylasufi Xose Ortega Gasset aytadiki, chinakam badiiy asar oʻquvchilarni ikkiga boʻlib tashlaydi: asarni tushunadiganlar va tushunmaydiganlar. Haqiqiy badiiy asarni tushunadiganlarni, faylasuf tugʻma aristokratlar deb ataydi. Tabiat hodisalari, manzaralariga adib ramziy maʼno yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qoʻshimcha bir vosita emas, balki maskadir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari etadigan joyigacha boʻlgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. Toʻgʻrirogʻi, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday maʼnoli va taʼsirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni oʻqib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmi his qilamiz.

«Boqiy darbadar»ning janri toʻgʻrisida toʻxtaladigan boʻlsak, hozirga kelib roman janri shu darajada takomillashib ketganki, «Oʻtkan kunlar» yoki «Urush va tinchlik» kabi voqea va personajlarga boy, mantiqiy va oʻzaro bogʻlangan voqealar tizimidan iborat asarlarni roman deb oʻylovchi oʻquvchi, masalan, Kafkaning deyarli hech qanday voqea sodir boʻlmaydigan va aytarli aniqroq, personaji boʻlmagan «Jarayon» asarini roman deyilishini tushunmasligi mumkin. Ayniqsa, roman janri keyingi yuz yil ichida tezlikda uzgarib, takomillashib borayotir. Bu

janrda sodir bo'layotgan evrilishlarni kuzatib bormaydigan o'quvchi yoki mutaxassis «Boqiy darbadar» kabi bir- biriga zoxiran bog'lanmaydigan voqealar jamlangan asarni o'qiganda fikr aytishdan ikkilanib qolishi hech gap emas.

Ikkinchidan, «Boqiy darbadar»ning bosh qahramoni kim? Bir qarashda asarda qahramon yo'qdek ko'rinadi. Jam ichidagi har bir voqeaning o'z qahramoni bor. Bu jamlangan voqealar uchun umumiy qahramon kim?

Asarni diqqat bilan o'qigan ayrim adabiyotchi do'stlarimiz uning bosh qahramoni darbadar, ya'ni muborak kishi tomonidan qarg'algan etikdo'z, u turli davrlarda turli xalqlarda, turli ko'rinishda namoyon bo'lmoqda deyishi mumkin. Balki bu gapda ham jon bordir, albatta. Deylik, Gobi sahrosidagi Inson takomili markazida xar turli genetik kombinatsiyalar yordamida mukammal, boqiy odamni yaratishni maqsad qilib olganlarning bari ming yillar ilgari qarg'algan etikdo'zning avlodlari deyish mumkin...

Qiziq-da, devoriga suyangani uchun muborak zotni turtib yuborgan etikdo'zni ul zot duoibad qildi:

«...Turgin va badar ketgin!

...Endi sen to qiyomatga qadar betinim daydishga mahkum etilding», — deyildi unga.

«Hamda endi sening qiladigan ishing – hech narsa, hech narsa, faqat hech narsa», – deyildi unga.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, kamtargina qilib “muborak zot” deyilgan kishi uchun “yaratilgan daraxt” meva tukkan, dengiz tubida chuchuk suvli buloqlar paydo bo'lgan bo'lsa, mahkumning boshi uzra endi o'sha chuchuk suvli buloqdar ustida paydo bo'lgan bulutlar muttasil soya tashlab bormoqda... Muborak kishi Tangri taoloning payg'ambarlaridan biri bo'lsa ham ajab emas, chunki faqat payg'ambarlarninggina duosi yoki qarg'ishi butun insoniyatga taalluqli bo'la oladi. Xullas, o'sha mahalda aytilgan birgina so'z bitta etikdo'zning qismatini o'zgartiribgina qolmayapti, zamonlar o'tishi bilan dunyoda boshqa darbadarlar paydo bo'lyapti. Etikdo'zning qiyomatgacha o'lmay, daydib yurish qismati

insoniyatning idealiga aylanyapti, ular bu dunyodagi umrboqiylik aslida yaratganning dahshatli jazosi ekanligini, bu dunyodan o'z vaqtida ketish tengsiz baxtligini butunlay unutib, million-million pullarni sarflab umrboqiylik genini topib, qiyomatgacha o'lmaydigan odam yaratishga boshi bilan sho'ng'ib ketyapti. Aslida darbadarlik – Yaratgan ko'rsatib qo'ygan yo'ldan ozish, uning azaliy qonunlarini buzishga urinish, qisqasi, yaratganga ehtiyojim yo'q, deyishlik deb tushunsak roman mazmunini to'g'ri anglab yetgan bo'lamiz.

Asarda lo'lilar qavmi haqida ham gap boradi. Aytilishicha, lo'lilar bir mahallar katta maqsadni ko'zlab yo'lga chiqishgan. Safar davomida paydo bo'lgan oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun osongina tilanchilik yo'lga o'tishgan. Keyinchalik tilanchilikni bosh maqsad qilib, katta maqsadlarini unutib yuborishgan. Lo'lilar – ajdodlari vasiyat qilib ketgan ulug' maqsadni unutib, darbadarlik yo'lga kirib ketganlar ramzi. Asar yakunida darbadarlik yo'lga kirgan insonlarni qum ostiga ko'mib tashlagan ulkan bo'ron Gobi cho'lidagi Inson takomili markaziga qo'shib, lo'lilar qavmini ham halok qilyapti.

«Boqiy darbadar»ni o'qiyotganda bir qator afsona-rivoyatlar yodga tushadi. Bobil minorasi haqidagi rivoyatni eslaylik. O'shanda butun dunyo kishilari bir tilda gaplashishardi. Ular o'zaro kelishib, Xudoning dargohiga yetish uchun baland minora qurishadi. Bundan xudoning qahri kelib, minorani buzib tashlaydi va xalqlarning tillarini aralashtirib, hammasiga alohida-alohida til beradi. Bu rivoyatda ham muhim bir jihat bor, ya'ni muayyan sharoitda kishilar Tangriga tenglashmoqchi bo'lishyapti va o'zlarida kuch-qudrat sezib yaratganga ehtiyoj sezmay qolishmoqda. Aslida «Boqiy darbadar»da tilga olingan boqiy inson yaratish g'oyasi, bu yo'ldagi harakatlar ham Xudoga tenglashmoqchi bo'lishga urinish, uning azaliy qonunlarini o'zgartiraman deb osiylik qilishdir. Buning uchun Xudo insonlarni qum bo'roni bilan jazolayapti. Hayot ziddiyatlardan iborat ekan, u insonga, o'sha ruhiy olamiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Romanda inson ruhiy olamidagi konflikt mahorat bilan talqin etilgan. Konflikt asar pesonajlarining to'qnashuvida emas, ularning ichki olamida kechadi.

Uzoq yillik tajribalar natijasida nurlanishlarga chidamli genoma dunyoga keltirildi. Lekin eng katta kamchiligi – u koʻrmaydi, quyosh nurlari unga halokatli taʼsir koʻrsatadi. Yana bir genoma, haddan ziyod egiluvchan, lekin bu egiluvchanlikni taʼminlash uchun organizm bugʻimlarga kerakli suyuqlikni yetkazib berolmaydi. Yana bir haddan ziyod uzoq, yashaydiganida esa aql nishonalari yoʻq. Nihoyat, har jihatdan toʻkis, mukammal, oliy tafakkurga ega genoma yaratildi. Lekin eng katta kamchilik shunda koʻrinadi: “Men kimman?”, “Nega tugʻildim” deya gangib, boshi berk koʻchaga kirib, nima maqsadda dunyoga keltirilganligini bilish uchun Xudoni izlab yoʻlga chiqadi. Shu oʻrinda muhim haqiqat yuzaga chiqadi, Xudoning bandasi ekanligimizni anglash, bu olamdagi hayotimiz Ollohning sinovi ekanligini chuqur his qilish bizlarni hayvondan ajratib turadigan eng oliy belgidir. Yana aytmoqchimizki, imonni boy berish hisobiga erishilgan katta gʻalabalarning bari pirovardida halokatga mahkumdur.

Asar matnidagi quyidagi tasvirlarga murojaat qilaylik: “Bu – gʻ ayriixtiyoriy xavotir edi. Tevarakdagi oddiy hodisalarning oʻz nizomidan xayolgina chetga chiqishi kishi koʻnglida aqlga itoat qilmaydigan hissiyotlarni va qoʻrquvlarni bino qilar, ong harchand urinmasin, yurak yaproqday dir-dir titrashini qoʻymasdi. Uning nazarida, sahro hududlarida bino boʻlgan va hozir qaylardadir parvardigorini izlab yurgan barhayot odam, shusiz ham mukammal nizomlardan tashqariga chiqishga urinayotgan izlanuvchilar, tobora toʻs-toʻpoloni chiqib borayotgan zamonaviy dunyo bilan mana shu shamol junbushi oʻrtasida elas-elas ilgʻ alar bir bogʻ liqlik bor edi goʻyo”. Xudoni unutish, uning azaliy qonunlarini oʻzgartirmoqchi boʻlish xamma zamonlarda insoniyatni baloga giriftor etib kelgan.

Professor dunyoga keltirgan umrboqiy va kuchli tafakkur egasi boʻlgan jonzot nima maqsadda yartilganligini anglay olmay, miyasi garang boʻlib duch kelgan tomonga qochib ketyapti.

Kasallik imtihon, sinov sifatida oʻzining fojiaviy jihatlarini yoʻqotadi, yaʼni Xudo bu shaharga odamlarni mashaqqat va fojiaga giriftor qilish uchun emas, balki ularning maʼnaviy olamini sinovdan oʻtkazish uchun bu dardni yuborgan. Demak,

uchinchi ma'no qatlamiga kelyapmiz. Bu ma'no qatlamining kashfiyotchisi esa o'quvchining o'zi bo'ladi. Inson ko'nglida shamday zaif miltillab turadigan qiyomat kunining sodir bo'lishini doim sezib yuradigan bir xis to'satdan alangalanib, kishining butun ichki olamini qamrab oladi. Go'yo yonib turgan shamdan alanga chiqib butun boshli uy yonib ketgandek. Insonning ko'ngil uyiga o't ketgan. Inson ko'nglida favqulodda bir vaziyatlarda ana shunday yong'in sodir bo'lib turadi. Ya'ni kishi nazarida rostdan ham qiyomat sodir bo'lib, olamning Olloh yaratgan azaliy muvozanati, uyg'unligi tartibsiz ravishda parchalana boshlaydi. Bu holat ruhiy xasta kishilarda patologik ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shunday bir o'ta ziddiyatli holatda inson o'z joniga qasd qilganini bilmay qoladi.

Isajon Sultonni «Boqiy darbadar»ni yozishiga undagan tuyg'u aynan qiyomatni favqulodda kuchli sezish, bu dunyo qadriyatlarini qiyomat degan ulkan tegirmonda yanchilishini ravon va jonli his etishdir. Xuddi mana shu tuyg'u «Boqiy darbadar» asarining dastlabki asosidir. Inson chalayotgan hayot degan kuyda darbadarlik ohanglari ustun ekanligini ilg'aydi yozuvchi.

Asarda ikki muhim yo'nalish mavjud. Birinchisi, hazrat etikduzni qarg'ayapti: «Turgin va badar ketgan!» Etikdo'z o'z vaqtida o'lmaslik azobiga duchor etiladi. Asar davomida etikdo'z o'zgacha zamon va makonda turli ko'rinishlarda yashab yuraveradi. Bugunga kelib esa insoniyat etikdo'zning qargalgan qismatini o'zi uchun ideal qilib tanlayapti – uzoq umr ko'rish ilinjida izlanishlar olib borilmoqda. Etikdo'z muborak zotga qo'pollik qilgani uchun boqiylik balosiga duchor bo'lgan edi. Xush, bugungi insoniyatni kim qarg'ishga duchor etyapti. Nega, nima uchun insoniyat Xudo yaratgan azaliy qonunlarni buzgani holda boqiy hayotga intilyapti. Isajon Sulton asaridagi muhim bir xulosa shuki, insonning biologik va ijtimoiy tabiatiga zid qonunlarning hayotga tatbiq etilishi muqarrar ravishda halokatga duchor etadi. Xudo to'satdan qiyomatni yubormaydi, balki insonning o'zi yaratganning azaliy qonunlarini buzgani holda qiyomatni o'zi chaqiradi, yaqinlashtiradi.

Badiiy asar tarkibidagi turfa xil xarakterdagi kichik hikoyatlar asar sujetidagi voqealar tizimini izohlab to'ldiradi. Inson har qancha kuchli, qudratli bo'lmasin, juda ko'p tomondan o'z zamonasining farzandi bo'lib qoladi. Shuning uchun ham bobolar va otalar, otalar va bolalar o'rtasida mudom ziddiyat, biri ikkinchisini tushunmaslik hollari sodir bo'laveradi. Chunki ularning har biri o'z davrining xususiyatlarini ma'lum darajada o'zida mujassamlashtiradi.

Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam "Yangilanish ehtiyoji" asarida quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Bani odamni mantiqsizlik qadar ayovsiz qiynoqlarga giriftor etadigan boshqa azob yo'q dunyoda. Bo'lishi mumkin, lekin uning bag' rida yashiringan qandaydir tasallini topib olasiz. Tasalliki, kun kelib insoning azobdan xalos bo'lishiga umid beradi. Mantiqsizlikning esa na avvalida na o'rtasida va na nihoyasida bor bunday taskin, bunday umid. Boshdan oyoq yuraklarni ezib suvini ichadigan bir vahima, yuraklarga ezib muz qotiradigan birizg' irin bor mantiqsizlik bo'shliqlarida".

Asar sujetidan o'rin olgan tarixiy rivoyatlar va hozircha keng jamoatchilik ongiga yetib bormagan eng zamonaviy ilmiy kashfiyotlar ko'magida insonning yer yuzidagi hayotini badiiy idrok etib, insoniyatning peshonasiga «darbadar» degan muhr bosmoqda. Darbadar – yo'ldan adashgan, borar manzilini yo'qotgan kimsa. Borar manzilini yo'qotish – Xudoni, o'z yaratuvchisini unutish. Isajon Sulton tarixiy rivoyatlar va hozircha keng jamoatchilik ongiga yetib bormagan eng zamonaviy ilmiy kashfiyotlar ko'magida insonning yer yuzidagi hayotini badiiy idrok etib, insoniyatning peshonasiga «darbadar» degan muhr bosmoqda.

Hozirgi kunda rivojlangan, badavlat mamlakatlarning ilmiy dargohlarida olib borilayotgan turli yo'nalishdagi ilmiy tajribalar, izlanishlar hamdda yetarli ma'lumotga ega bo'lgan odam yozuvchi Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» romanini osmondan olib yozmaganini darrov tushunib yetadi. Shu kunlarda yaratilayotgan xorijiy kinofilmlarda, badiiy adabiyotlarda indiogoid va kristall bolalar haqida gap boryapti. Qizig'i shundaki, bu bolalar o'ta zakovatli, o'zlariga haddan ziyod ishonadilar, hech kim ularga so'zini o'tkazolmaydi, ammo ular

boshqalarni osongina bo'ysundirishadi; uyalish va qo'rquv hissini tuymaydilar; maqsad yo'lida juda sobitqadam, kichik yoshdanoq kattalar bilmaydigan narsalarni bilib olishadi, ko'zingizga qarab fikringizni o'qiy olishadi. Bu kabi bolalarni moddiyunchi olimlar «oltinchi irq kashshoflari» deb atashyapti. Bunday evrilishlar ularda o'lim, taqdiri azal va oxirat ishonchining sekin-sekin yo'q bo'lishiga olib kelmoqda. Asardagi ramziy obrazlar orqali inson tanazzulini, ma'naviy qashshoqlanish holatlarini tasvirlaydi: "Kochkiydi aytganlariga avval ham aqlim yetsaydi! – deb shivirladi u, hayratdan titrab. Zurriyot! Yo qudratingdan, axir Zurriyotni orzu qilayapsan-ku, ey sho'rlik tutqun? Va ko'zlaridan yosh quyilgan ko'yi, sassiz-sadosiz bu kengliklarni titratib, shunday dedi: - Ey hayotning mehvari, ey butun borliqning tamale, ey hikmatlarning ulug' i, ey Tangrimning irodasi! Men hozir senga o'z so'zim bilan muboraklik darajasini beraman!"

Agar bu izlanishlar nihoyasiga etsa, butun dunyo aholisini markazlashgan bitta kompyuter yordamida boshqarish, xohlagan ko'ygga solish mumkin bo'lib qoladi, bizningcha. Demak, hozirgi kunda inson taraqqiyotiga xizmat qilishi ko'zlangan ilm odam geniga bostirib kirib, undagi Xudo yaratgan sifat va xususiyatlarni ezib-yanchib, o'rniga o'zining xatarli, inson zotini yer yuzidan qirilib ketishiga olib keladigan, ma'naviy-ruhiy qadriyatlarni ostin-ustun qilib tashlaydigan yovuzlik urug'ini eka olish kabi xatarli xususiyatini ham namoyon qilmoqda. Inson zotini o'zga bir mavjudotga aylantirayotgan, inson taqdirining yaratuvchisi bo'laman deb xudolikni da'vo qilayotgan, kishilar qalbidan mehr-muhabbat, hamdardlik tuyg'ularini supurib tashlab, o'rniga cheksiz xudbinlik urug'ini ekayotgan shaxslar fojeasini asosli tasvirlaydi. Xudo yaratgan tartib-nizomlarni buzmoqchi bo'lganlarni «Boqiy darbadar»da Yaratgan ulkan bo'ron yuborib qum ostiga ko'mib yo'q qilib tashlayapti. Bu – jismoniy usulda iblis yo'lga kirganlarni jazolash.

G'oyani g'oya bilan yengish lozim deymiz. «Boqiy darbadar»da ma'naviy-ruhiy qadriyatlarni inkor etguvchilarga nisbatan yaratganning qudratini anglash,

unga shukronalik, ota-onaga ehtirom, vatan va millatga muhabbat inson uchun eng oliy qadriyatlar ekanligi muqobil kelyapti.

Professorning o`g`li maktubini onasining nomini tilga olish bilan boshlayapti: “Bugun onamning hokisor va aziz qadamlarining izi qolgan hovlimizda ekanman, Parvardigori olamga imon keltirgan barcha kishilarning, avvalo sizning va onayizorimning shaniga ko`zlarimda yosh bilan duo qilgach, ushbu maktubni bitmoqdaman...”

O`g`il maktubida bejiz millat va vatan qadr-qimmatini bu darajada yuksakka ko`tarayotgani yo`q. Yangi inson yaratishga urinayotganlarning aytishicha, ularning ilmiy izlanishlari nihoyasiga yetib, o`zlari xohlagandek umrboqiy va go`yo oliy tafakkurga ega bo`lgan inson yaralgach, ota-ona, Vatan, millat kabi boqiy ma`naviy qadriyatlar o`z-o`zidan nursizlanib, yer yuzidan supurilib yo`q bo`lib ketadi. Insonni inson qilib turgan tushunchalar – Yaratganga itoat etish, uning cheksiz qudratini anglash, Vatan va millatga muhabbat, ota-onaga ehtirom tuyg`ulari barbod bo`layotganini kuzatamiz. Shunday bir sharoitda yoshlarimizga Vatan, millat, ota-ona inson uchun tengsiz boylik ekanligini eslatib qo`yish har bir ziyolining Vatan va millat oldidagi burchi vazifasidir. Shu ma`noda romanni har xil rivoyatlar va kundalik turmushimizga aloqasi bo`lmagan ilmiy laboratoriyalar to`g`risida yozilgan oddiy bir asar deyish noto`g`ridir.

Hayot hikmatini anglab yetgan mutafakkir bu yorug` dunyoni tark etish arafasida qanday insoniy qadriyatlarni muhim deb hisoblab, insoniyatga xitob qilyapti: «...Ey qodir Egam! Agar yana bir parchagina hayot bo`lagi tanimda qolsaydi, bir kunimni shu tevaragimdagi o`zim suygan insonlarga ularni sevimni aytmadan o`tkazmasdim. Men uchun qimmatli bo`lgan har bir kishini muhabbatimga ishontirgan, muhabbatni sevib yashagan bo`lardim... Eshikdan qanday chiqayotganingni oxirgi bor ko`rayotganimni bilsam, bag`rimga qattiq bosib o`pgan va yanada ko`proq mehrimni berish uchun yana qaytadan o`zimga chorlagan bo`lardim. Ovozingni so`nggi bor eshitayotganimni bilsam, men hamma gapirgan gaplaringni qayta-qayta, benihoya eshitish uchun yozib olgan bo`lardim.

Agar seni ko`rib turganimning so`nggi daqiqalari ekanini bilsam, shunday degan bo`lardim: «Men seni yaxshi ko`raman, ammo buni shusiz ham bilishing men ahmoqning xayolimga ham kelmabdi».

Asarda hayot haqiqatini, inson umri mazmunini anglab yetgan mutafakkir o`limi oldidan hammamizga tanish tuyg`ular to`g`risida gapiryapti, mehr-muhabbat inson hayoti uchun tengsiz qimmatga ega ekanligini qayd qiladi. Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» asarida ilk bor keyingi davr o`zbek adabiyotida Ollohning qiyomatini jonli his etish tamoyili yaqqol sezilib turadi. Qiyomatni jonli his etish – inson ruhidagi eng og`ir va favqulodda holat.

«Boqiy darbadar»ni xatodan boshlangan inson hayotining ibtido va intihosining mo`jazzgina badiiy tarixi desak ham ma`qul bo`lardi. Asarni o`qib tugatgan ayrim o`quvchilarda romanning bosh qahramoni kim, degan savol paydo bo`lishi shubhasiz. Biz yuqorida romanning bosh qahramoni professor Ziyo ekanligini, asardagi go`yo o`zaro bog`lanmagandek ko`ringan hodisalar Ziyoning qalbidagi kechinmalar ekanligini gapirdik. «Boqiy darbadar»da professor Ziyo mukammal genoma formulasini yaratib bo`lganidan keyin uning yuragida evrilishlar boshlandi. Ya`ni u bir boshdan ichidagi g`alayonga mos hodisalarni eslayapti. Va bu hodisalarning bari ketma-ket professorning miyasiga toshdek urilib, ilmiy kashfiyoti Xudoning azaliy nizomlarini buzish ekanligini ta`kidlayapti. Balki payg`ambarlardan biri tomonidan qarg`alib, darbadarlikka duchor etilgan etikdo`z, shahri haybar, g`ordagi avliyo, g`aroyib toshbaqa, sahrodagi karvon, mutafakkir maktubi, o`g`lidan kelgan xat – bularning bari professorning ong-shuuri, qalbidagi favqulodda jarayonlardir. Eslanayotgan har bir hodisa zahirida esa yozuvchi o`quvchiga yetkazmoqchi bo`lgan katta xarakerning alohida bir bo`lagi yashiringanligini kuzatamiz. Asardagi ruhiy iztiroblar talqini inson menini anglashga xizmat qiladi.

2-fasl. Mif va zamonaviy roman munosabati.

Tadqiqotchil olimlar, jumladan, adabiyotshunoslik ilmda o'ziga xos maktab yaratgan A.N. Veselovskiy adabiy turlar qadim zamonlarda marosim qo'shiqlaridan kelib chiqqanini urg' ulaydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, badiiy san'atning asosi folklorda ekan, keyinchalik yuzaga kelgan har qanday janrni folklor namunalariga qarama-qarshi qo'yish, o'z nomi bilan umumxalqqa taalluqli mulkni ma'lum bir tabaqa ehtiyoji bilan bog' lash mantiqsizlikdir.

Voqelikni qabul qilish va ifoda tarzi, yo'sinlari, usullari har davrda o'ziga xos tarzda kechadi. Ma'lum bir davrda ustuvor bo'lgan qonuniyatlar, boshqa bir davrda susayishi, unutilishi, o'rniga yangilari kirib kelishi mumkin. Shunday ekan, yangi davrda epos ijrochilari bilan bir qatorda yangi ijodkorlarning paydo bo'lishi hayotiy zarurat edi. Biroq bu degani epik ijod tamoman unutildi, uning o'rnini roman egalladi, roman o'z-o'zidan paydo bo'lgan, badiiy adabiyotda eposning inkori o'laroq yuzaga kelgan mutlaqo yangi bir hodisa deyish ham u darajada to'g' ri bo'lmaydi. Roman eposdan andoza olgan holatda, unga taqlid tarzda yuzaga keldi. Biroq eng muhimi, bu janr biz uchun tamomila begona yoxud tom ma'noda, kutilmagan bir yangilik emasdi.

M.Baxtinning eposga bergan ta'rifini ko'rib chiqaylik: 1) epos uchun milliy epik o'tmish, Gyote yoxud Shiller ta'biri bilan aytganda, mutlaq o'tmish dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. 2) xalq afsonalari epos uchun manba vazifasini o'taydi; 3) epik vaqt, ya'ni eposda kuylanayotgan zamon bilan baxshi kuylayotgan, tinglovchilar tinglayotgan zamon o'rtasida ulkan masofa mavjud (M.Baxtin. Epos i roman. – Sankt-Peterburg: Azbuka, 2000. – 204 b.).

Yuqoridagi ikki fikr faqat qahramonlik yoki tarixiy eposga xos bo'lishi mumkin. Epik ijodkor yozma adabiyotdan yoxud o'z hayotidagi biror bir voqelikdan ta'sirlanib doston yaratishi mumkinligini ham hech kim inkor eta olmaydi. Bunda u dostonni, albatta, epik an'anaga amal qilgan, epik qoliplarga suyangan holda yaratadi.

Romanning eposdan farqli tomoni bu og‘ zaki emas, yozma qonuniyatlar asosida yaratilishi hamda tadqiqotchilar ta’kidlashgandek, urg‘ u hozirgi zamonda kechayotgan voqelikka berilishidadir. Ma’lumki, har qanday epik ijodi namunasi aqalli bir yoki ikki avlod tomonidan og‘zaki ijroda kuylangan bo‘lishi shart. Biroq shunday epos namunalari ham mavjudki, faqat bir baxshi repurtuarida uchraydi, boshqa baxshi repurtuarida uchramaydi. Shunday ekan, eposda faqat olis o‘tmish voqeligi aks etgan bo‘lishi shart degan tushuncha ham u darajada o‘zini oqlamaydi.

G‘arbda epik ijod tamomila so‘nib bo‘lgani uchun bu ijod qonuniyatlari haqida bildirilgan fikrlar to‘laqonli bo‘lmasligi tabiiy edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak Baxtin eposni bizgacha o‘z umrini yashab bo‘lgan, tamomila «o‘lik bir janr» sifatida baholaydi.

M.Baxtin faqat romangagina xos deb urg‘ ulagan ko‘p qatlamlilik, zamon va makonga munosabat masalalarini biz bemalol epik ijod namunalariga ham tatbiq etishimiz mumkin bo‘ladi. Demak, romanga berilayotgan ta’riflar ham to‘laqonli emas, deb ayta olamiz.

Romanning Yevropa adabiyoti uchun «o‘gay»ligini ko‘pgina adabiyotshunoslar tan olishadi. Bu o‘gaylik nimalarda ko‘rinadi? Baxtin ham romanning bus-butunligini, janrlar garmoniyasida ishtirok etmasligini urg‘ ulaydi.

Roman aslida bu epik asarning zamonaviy ko‘rinishi edi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu janr Yevropada epik ijodga taqlid sifatida paydo bo‘ldi. Biroq, afsuski, roman urf bo‘lganda Yevropada epik ijod deyarli so‘nib bo‘lgan edi. Bu masalaning birinchi tomoni. Ikkinchi tomoni esa adabiyotshunoslar, xususan, Yevropa adabiyotshunosligi o‘z qarashlarini isbotlash uchun, birinchi navbatda, yunon adabiyotiga, xususan, Gomer ijodiga suyanan.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib Gomerning shoir emas, baxshi bo‘lganligi, u yaratgan «Iliada» va «Odessiya» dostonlari og‘ zaki ijod namunasi ekanligi fanda oydinlashdi. Bu yangilik xorijda qanchalik shov-shuvlarga sabab bo‘lmasin, xorijlik olimlar adabiyotshunoslik borasida Gomer ijodiga suyanib

kelgan xulosalarini qayta ko'rib chiqqanlari yo'q. Bu, jumladan, roman janriga ham tegishlidir.

Atoqli adibimiz Abdulla Qodiriy: «Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har qanday yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashishimiz va shunga o'xshash dostonchilik, romanchilik va hikoyachiliklarda ham yangilanishga, xalqimizni shu zamonning «Tohir va Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishtirishga o'zimizda majburiyat his etamiz», – deb yozgandi (Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1980. – 6 bet).

Bir qarashda adib bu so'zlarni kamtarlik uchun aytganday tuyuladi. Biroq roman janrining kelib chiqishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, adib so'zlari chin haqiqat ekanini ilg'ab olamiz.

Roman janrida alohida iz qoldirgan Rablening «Gargantyua va Pantagryuele»sini olamizmi yoki Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohati», Daniel Defoning «Robinzon Kruzo»sini olamizmi, biz barchasida eposga taqlidni ko'ramiz. Zero, Gegelning roman haqida gapira turib unda voqelikning epik tasviri bo'lishi shartligini urg'ulashi, V.G.Belinskiy esa «roman shaxs hayotining eposi»dir degan xulosaga kelishi bejizga emas.

Roman janri eposga taqlid o'laroq paydo bo'lib, mustaqil janr sifatida shakllanish jarayoni hamda bugungi holatida ham (Joys, Markes asarlarida misolida) folklordan hech qachon uzoqlashib ketmaganligini, mazkur janrning yana yangicha tamoyillar asosida folklorga yaqinlashuvini, kuzatamiz. Umuman, XX asr nasrida avangard adabiyot namoyandalari romanni folklorga qaytarishga uringanligi bilan romanning yangi bosqichi boshlandi.

Xorijlik Ignas Kunos, Edmond Soussi, Edit Fisdik kabi olimlar esa xalq dostoniga nisbatan roman atamasini qo'llaganini kuzatamiz. Ular roman va dostonning farqiga bormaganligi uchun emas, balki har ikkala janr xususiyatlarini o'rganib, Yevropa o'quvchilariga tushunarli bo'lishi uchun aynan shu atamani qo'llashadi. Bu holat romanni eposga qarama-qarshi qo'yish zarurati yo'qligini

urg‘ ulaydi. Hatto Baxtin ham o‘z tadqiqotlarining ayrim o‘rinlarida o‘zining ilgarigi fikrlariga qarshi borib, «Roman ham aslida eposdir» degan fikrga keladi. Romanning shakllanishida folklor asos bo‘lganini urg‘ulaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, romanga qisqacha quyidagicha ta’rif berish mumkin bo‘ladi: motiv va sujetlar talqinida ko‘p qatlamlilikka ega, xuddi xalq dostonlaridagi kabi mavzu va g‘oyasi epik ko‘lam kasb etgan, ayni paytdagi epik tafakkur tarziga amal qilingan, xalqning ma’naviy, jismoniy, ijtimoiy epik sharoitini bor bo‘yi basti bilan qamrab olgan, biroq epik ijoddan farqli o‘laroq individual ijodkor tomonidan yaratilgan, turli murakkab vaziyatlarda gavdalantirilgan qahramonlar xarakterining shakllanish jarayonini tasvirlab bergan, rang-barang obrazlar galeriyasi hamda nasr yoki nazmda o‘ziga xos uslub hamda badiiy tasvir vositalari bilan ajralib turuvchi yozma ijod namunasi roman deb ataladi. Albatta bu ta’rif ham so‘nggi yoki oxirgi ta’rif bo‘lolmaydi. Eng muhimi, romanga ta’rif berilar ekan, uni eposga qarama-qarshi qo‘ymasdan, badiiylilik mezonlaridan kelib chiqqan holda yondashmoq lozim.

Romanni qissa yoki hikoyadan farqlantirib turadigan eng asosiy jihat bu xalq dostonlariga xos bo‘lgan epik ko‘lamdir. Motiv va sujetlar qurilishi, voqea bayoni, obrazlar talqinida ham ana shu epik ko‘lam sezilib turishi shart. Biror-bir asarda ana shu yaxlitlikdagi epik ko‘lam yo‘q ekan, hajmi qancha katta bo‘lishidan qat’iy nazar uni roman deb atay olmaymiz. Qissada esa epik ko‘lam ma’lum darajada chegaralangan. Bu chegaralanish albatta voqea talqini, qahramonlar tavsifida ham o‘z aksini topgan bo‘ladi. Hikoyada esa qahramonning ma’lum bir vaqt yoxud vaziyatda yuz bergan holati, kechinmalari o‘z aksini topadi. Epik ko‘lam bo‘lish hikoyadan talab etilmaydi. Biroq bu degani epik ko‘lam hikoyaga begona degani ham emas. Ayrim hikoyalarda xuddi roman yoki qissadagi kabi epik ko‘lami zalvori sezilib turishi mumkin, albatta.

Germaniyalik tadqiqotchi Maurisi Shroderga ko‘ra roman tajribasizlikdan tajribaga, jaholat sarobidan hayotning haqiqatlari tomon borish mashaqqatlarini

qalamga oladi. Lionel Trilling fikricha esa roman voqelik va xayolot, tasavvur orasidagi farqdan iboratdir.

Roman ham xuddi epos kabi turli xil voqea-hodisilar, taqdirlar, ko‘plab xarakterlarni o‘z ichiga qamrab oladiki, badiiy ijodning boshqa hech bir turida bunday keng ko‘lamlilik, erkinlikni ko‘rmaymiz. Tasvir imkoniyatining kengligi inson ruhiyatini chuqurroq yoritib berishga yordam beradi.

Roman – bu voqelikni idrok etish va ifoda etishning o‘ziga xos bir shaklidir. Roman – voqelikka tamomila yangicha bir munosabatdir. Eposda voqelikka munosabatda og‘ zaki ijro an‘analariga rioya etish, voqelikni epik formulalar asosiga qurish muhim hisoblansa, romanda ijodkorning quvvati, badiiy imkoniyatidan kelib chiqib voqelikka yondashuvni ko‘ramiz.

Keyingi yillar nasriy va she‘riy asarlarning taraqqiyotida Ulug‘bek Hamdamning o‘rni beqiyosdir. U ijodkor sifatida bir qancha hikoya va qissalar bilan bir qatorda roman janrida ham samarali ijod qilgan adiblardan biridir. Adibning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari adabiy tanqidchilikda ham yuksak baholangan. Yozuvchi bu romanlarida hayot voqeligini, inson xarakteridagi mavjud xislatlarni, ruhiy olamidagi quvonch va iztiroblarini, insonning botiniy olamidagi ziddiyatlarni turfa xil ohanglarda talqin etadi.

Insoniyat tarixida XX asr ijtimoiy va siyosiy ixtiloflar, fan-texnika taraqqiyoti asri bo‘lish bilan birga, estetik intellektual tafakkur xilma-xilligini namoyon qilgan asar hamdir. Adabiyot olamida kechgan evrilishlar badiiy-estetik taraqqiyot mezonlari va tamoyillarini belgilaydi.

Roman janri tadriji taraqqiyot sari intilar ekan mana shu jarayonning o‘zi roman janrining ichki evrilishlarini asoslaydi, jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasini aks ettiruvchi asosiy estetik unsur ekanligini anglatadi. Shu boisdan ham XX asrda qayta va qayta ko‘tarilgan roman janri xususidagi bahs va munozaralar maxraji inson va jamiyat, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat sabablariga, ularni anglash jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahlilidir.

“Har xil izlanishlar ko`p, - deb yozadi Odil Yoqubov, - bu yaxshi, chunki biz an’anaviy adabiyot, Abdulla Qodiriylar yaratib ketgan yo`llarni e’zozlab, ular qanchalik qadrlil va muhim bo`lmasin, yangi yo`llar qidirishimiz kerak. Faqat adabiyotda emas. Hayotning o`zi bugun juda rang- barang. Adabiyot hayotning kunduzi ekan, u ham bu o`zgarishlarni o`zida mujassamlashtiradi”⁶.

Shunday ekan, biz avvalo iste’dodli yozuvchi Ulug`bek Hamdamning hayoti va ijodiga qisqacha to`xtalib o`tamiz. Ulug`bek Hamdam Mustaqil O`zbekistonimizning go`zal vohalaridan biri Andijonda 1968 yil tavallud topgan. O`rta maktabni a`lo baholar bilan tamomlab, O`zMUning filologiya fakultetini bitirgan. Undan so`ng esa O`zR FAning XX asr adabiyoti bo`limida aspiranturani o`tab, “30- yillar o`zbek she`riyatida sof lirika muammosi” mavzusida nomzodlik dissertasiyasini yoqlagan.

“Yolg`izlik” (qissa va hikoyalar to`plami), “Tangriga eltuvchi isyon”, “Badiiy tafakkur tadriji”, “Yangilanish ehtiyoji”, “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Atirgul”, “Sabo va Samandar” kabi qator asarlar muallifidir.

Ulug`bek Hamdam adabiyotchilar oilasida tug`ilgani uchunmi, yoshligidan adabiyotga ixlos qo`yadi. Ular oilada yetti farzand, yettitasi ham o`g`il. Shu yettitadan uchtasi taqdir taqazosi bilan adabiyotchi bo`lib yetishgan.

Yozuvchi bolalik xotiralarini shunday eslaydi: “Oilamda, otam va onamning o`mi, ularning yaratgan muhitida adabiyotchi bo`lmasligimiz mumkin emas edi... Rahmatlik Oybek akam ham adabiyotchi edilar. Men ham adabiyot odami bo`ldim. Muhit shunday bo`lganki, birin-ketin ikki o`g`il adabiyotning odami bo`ldi. Vaholanki, uchinchimiz ham filologiya fakultetini bitirgan. Garchand o`qituvchilik bilan chegaralangan bo`lsa ham, baribir adabiyotdan saboq beradi. Chunki kichikligimizdan otam ham, onam ham yozuvchilar, shoirlar haqida juda ko`p gapirishardi. Ayniqsa, san’atkorlarning oilasida yozilgan kitoblarigacha bilishardi. Xuddi o`zlari ko`rib-bilib yurganday hikoya qilib berardilar. Undan keyin uyda otam kitobdan she`r, dostonlar o`qib berardilar. Negadir

⁶ Ёқубов О. “Қаҳрамонларни ҳаётдан қидирайлик”.// “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2001 йил, 3 ноябрь.

biz indamasdan eshitardik. Ehtimol, shularning ta'siri bo'lsa kerak. Yana biologik faktor degan narsa ham bor. Ularning o'zlarida ham adabiyotga moyillik bo'lgan. Qon orqali, irsiyat orqali ham o'tgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham akamning hayotida adabiyotga muhabbat chuqur muhrlangan”⁷. Bu fikrlardan kelib chiqadigan tushunchalar shundan iboratki, Ulug'bek Hamdam ijodkor bo'lib shakllanishida oilaviy muhitning o'mi katta rol o'ynaganligini his etamiz. Yozuvchining “Muvozanat” romani yaratilgandan so'ng roman janrining imkoniyatlari beqiyos ekanligi yana bir bor asoslandi. Roman keng kitobxonlar ommasi tomonidan juda yaxshi kutib olindi va adabiyotshunoslar asosli tarzda yuksak baholadi.

Insonni anglash, inson shaxsini tahlil va talqin etishda bizda uzoq yillar ustivor bo'lgan ijtimoiy-axloqiy yondoshish an'anasi davom etgani holda, XX asr jahon adabiyotida keng tarqalgan estetik falsafiy oqimlar tajribalariga astoydil qiziqish, qolaversa, sharq adabiyotining buyuk merosi diniy-islomiy aqidalar, tasavvuf falsafasi va estetikasiga qaytish hozirning o'zidayoq o'z samarasini bermoqda, adib romanlari tobora ham mazmunan, ham shaklan o'zgacha qiyofa kasb etmoqda.

Odatda kitobxonlar o'zlariga yaqin mavzulardagi asarlarga ko'proq qiziqishadi. Masalan, jamiyat bugungi kunda qanday muammolar bilan yashayotgan esa, o'sha masalalar maroqli va yuksak badiiyat bilan aks ettirilgan asarlar o'quvchilarda eng ko'p qiziqish uyg'otadi, deb o'ylayman. Shu bilan birga, o'z olamiga g'arq bo'lgan, shoir aytmoqchi, torgina hovuzni butun bir dunyo deb bilgan o'quvchilar guruhi ham bor. Ular xuddi shunday subyektiv olamda yashab ijod qiladigan shoir yo yozuvchi asarlarining muxlisi bo'lishadi, odatda. E'tibor qilsangiz, zamonamizda talay odamlar o'zi bilan o'zi o'ralashib qolganini anglaysiz. Xuddi shunday, o'z chorbog'ini butun bir olamga teng deydigan ijodkorlar ham topiladi. Ular, ko'pincha, o'z qobig'idan tashqari chiqa olmay, eng yomoni, bunga harakat ham qilmay, o'z subyektivizmi botqog'i ichra xonish qilayotgan sho'rlik qushga o'xshaydi. Aslida, ijodkorning o'z ichki dunyosiga

⁷ “Жаннатмакон”. // Адабиёт ва одамлар. Октябр, 2005 йил 48-бет.

sayohat qilishi, u yerdagini tashqariga – qog‘ozga, o‘quvchilarga olib chiqishi san‘atning mohiyatiga uyg‘un xatti-harakat. Lekin, hamma gap shundaki, ma‘naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan past saviyadagi ijodkorning ko‘ngil dunyosi biqiq va maishiy hududdan iborat bo‘lib qolganda, uning qalamidan chiqqan she‘r ham, qissa-yu roman ham o‘zga ko‘ngil va ongga ta’sir etmaydi.

“Na’matak” romani buning aksi. Bu yerda yozuvchi ongida kechayotgan olam va odam haqidagi turfa xil fikrlar kurashi tafakkur kuchi bilan qog‘ozga ixcham holda muhrlangan. Umuman, U.Hamdam ijodini kuzatadigan bo‘lsak, asosiy mavzu va g‘oyalar bugungi zamodoshlarimiz – yangi insonni qiynayotgan muammolar atrofida ekanligiga shohid bo‘lamiz.

U.Hamdamning dastlabki asarlari xususan, “Isyon va itoat” romani muxlislari safining ortishiga, yozuvchining keng tanilishiga turtki bergandi. Keyingi yillarda Ulug‘ bek Hamdamning qator hikoya, qissa va romanlari dunyo yuzini ko‘rdi. Misol uchun: 2010 yilda “Uzoqdagi Dilnura” qissa, hikoya va she‘rlar to‘plami, 2011 yilda “Sabo va Samandar” romani, 2013 yilda rus tilida “Забывтая мелодия ная” qissa va hikoyalar to‘plami, yana shu yili “Yangi o‘zbek she‘riyati” ilmiy monografiya, 2014 yilda “Vatan haqida qo‘shiq” romanlar va hikoyalar jamlangan to‘plami nashr etildi.

Aynan shu oxirgi to‘plamga kiritilgan “Na’matak” mini romani ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otdi. Ayrimlar uni juda kichik hajmda ekanligi, bir hikoyacha kelishini pesh qilib roman deb atamaslik kerak, degan qarorga kelishgan bo‘lsa, boshqalar jahon adabiyotida urf bo‘layotgan mini romanlar yo‘lidagi bir urinish sifatida qarashmoqda.

Mana yozuvchining o‘zi “Na’matak” haqida nimalar deydi: “Adabiyot yangilanayotir. U vaqti-vaqti bilan libosini o‘zgartirib turadi, ya’ni yangi to‘n kiyib oladi. Bu narsa, ayniqsa, keyingi vaqtlarda bo‘rtib ko‘rina boshladi. Bugun yostiqdek romanlarni o‘qish nihoyatda mushkul. Qisqalik, lo‘ndalik, obrazlilik bugungi adabiyotning asosiy atributlaridan. Chunki vaqtning unumi qolmagan. Texnika va axborot asrlari inson uchun vaqt deb atalgan ne‘mat barakasini uchirib

yubordi. Bunga amin bo'lish uchun, ana, biron haftaga qishloqqa, odamlar kamroq yashaydigan ovloqqa borib vaqtni kuzating. Birdaniga u imillay boshlaganiga guvoh bo'lasiz. Lekin gavjum shaharga qaytib kelganingizda hammasi o'zgaradi – yillaringiz oylardek, oylaringiz haftalar kabi, haftalaringiz kunlar singari o'tayotganini payqab qolasiz. Nega? Chunki bu yerda harakat ko'p va tig'iz. Atrofingizda ko'pqavatli uylar, avtolar, odamlar... Va ular ko'z o'ngingizda tinimsiz harakatlanib turadi. G' oyalar, qarashlar, kayfiyatlar ham shunday. Natijada vaqtni his qilishimiz o'zgarib, inson qisqa fursat ichida ko'proq narsaga erishish payiga tushib qoladi. Shaharliklarning shoshqaloq bo'lib qolishi shundan. U yog'ini surishtirsangiz, dunyoning o'zi sekin-asta ulkan bir shaharga aylanib borayapti. Urbanizasiya! Odamlarning ko'pchiligi shaharda tug'ilib, shaharda yashab, shu yerning o'zida vafot etishayapti. Vaqt bu yerda juda tez, umr esa o'ta qisqa. Hatto shaharlik odam xuddi qishloqdoshi yanglig' 80 yil umr ko'rsa ham, baribir, o'sha vaqt sezgisi tufayli qishloqlikdan ancha kam yashagan bo'ladi. Lekin yo'qotilganni boshqa narsa bilan to'ldirgisi keladi uning ham. Kompensasiya deyiladi-ku! Masalan, umri davomida ko'p narsaga ulgurish bilan muvozanatni saqlamoqchi bo'ladi bugungi shaharlik inson. Men mana shulardan kelib chiqib, "Na'matak" deb atalgan kichik eksperimental asar yozdim. Va uni shartli ravishda roman deb atadim. Bunda ana o'sha ixtiyorimizda tobora kamayib borayotgan VAQT tushunchasidan kelib chiqib, roman mazmunini bitta hikoya hajmiga qamashga harakat qildim. Bu bir tajriba, xolos. Undan kattasiga da'voim yo'q. Albatta, asarga qarashlar har xil bo'ldi, bo'layapti. Buni men tabiiy qabul qilaman. Faqat tomonlar bu asar o'yin yoki havas tarzida tug'ilmaganligini, uning aynan shunday kichik hajmda yozilganligining, yuqorida bayon etilganidek, juda salmoqli asos – sababi borligini bir bor mushohada qilib ko'rsalar, bas. U yog'ini so'rasangiz, mutolaadan so'ng xotirangizda hikoyaning yukicha mazmun qoldirmagan yostiqdek romandan, romanning yukidek mazmun qoldirgan jimitdek hikoyani chandon afzal ko'raman men.

Darvoqe, adabiyotdagi o‘yin masalasiga kelsak. Ko‘pchilik zamondosh ijodkorlar shaklga shu darajada ruju qo‘yishdiki, natijada ko‘p hollarda alam bilan mazmunning oqsayotganini kuzatishga to‘g‘ri kelmoqda. Qosh-u ko‘zi joyida tuppa-tuzuk matnlar yozib tashlanmoqda, lekin ularda eng zarur unsur – yaratuvchi ruh yo‘q! Adabiyot, san‘at katta ma’noda o‘yinga aylantirila boshlandi. To‘g‘ri, adabiyotda o‘yinlik xususiyati bor. Lekin u dominant mavqega ega bo‘lishi kerak emas. Gap shundaki, adabiyot inson dardidan, adolat va haqiqatdan uzoqlashar va shaklbozlikni o‘zining bosh a‘moliga aylantirar, san‘at asosini boshqotirmadan iborat deb bilar ekan, u sariq chaqaga ham arzimaydi. Adabiyotni ko‘ngilxushlik darajasiga tushirmaslik kerak. Haqiqiy adabiyot, bu – inson ruhi aks etguvchi ilohiy ko‘zgudir”⁸!

Mif va asotirlarning bugungi roman strukturasiga kirib kelayotgani qay darajada o‘zini oqlashi haqida Ulug‘bek Hamdam quyidagicha fikr yuritadi: “Meni esa har doim bitta narsa o‘ylatib kelgan: ijodda shunday bir darajaga erishsangki, unda seni hamma – omma ham, xos ham birdek tushunsa. Bu aytishgagina oson. Hatto chinakamiga xalqona yo‘lda o‘quvchiga ma’qul bo‘ladigan to‘rt qator she’r aytish ham g‘oyat mushkul ish. Bir necha vaqt muqaddam yaqin do‘stim tavsiyasiga ko‘ra professor Suyima G‘aniyeva tarjimasi va tahriri ostida chop etilgan “Kalila va Dimna” asarini qayta o‘qib chiqdim. Qayta deganimning sababi, bir vaqtlar, maktab paytimda asar bilan ilk bor tanishgan edim. Bilasizmi, do‘stimdan juda-juda minnatdor bo‘lib ketdim. Axir, mana-ku, men ijodda orzu qilgan o‘sha daraja! Yetti yoshdan yetmish yoshgacha manzur bo‘ladigan uslub! Qahramonlari asosan darranda-yu parranda, hasharot-u odamiyzod bo‘lgan ushbu asarning sujeti bolalarga qanchalik zavqli bo‘lsa, sujet zimnidagi ma’nolar tafakkur yurituvchilar uchun shunchalar maroqli. Unda aks etgan bir-biridan qiziq voqyealar xalq e’tiborini qancha tortsa, voqealardan kelib chiqadigan xulosalar, qissadan hissalar xos kishilar diqqatiga shuncha munosib. Bir vaqtning o‘zida ham

⁸ Умидбахш адабиёт эҳтиёжи (ёзувчи Улугбек Ҳамдам билан суҳбат). Суҳбатдош Адиба Умирова. 2015 йил, март. (Суҳбат жузъий қисқартиришлар билан “Хуррият” газетасида 2015 йил май ойида эълон қилинди).

ko‘pchilik, ham ozchilik didiga uyg‘un so‘z aytishning uddasidan chiqolmaganim uchun ham men hozirgacha alohida-alohida aytib keldim. Chunonchi, “Yolg‘izlik” degan qissamni yozganimda men yozuvchi sifatida aytadigan hamma asosiy gapimni aytib bo‘ldim, deb o‘ylaganman. Lekin keyinroq sarsor solsam, u asar ko‘proq xoslar uchun bitilgan ekan. Ko‘nglim to‘lmadi va uni ko‘pchilikka tushuntirish uchun naq uchta roman yozdim: “Muvozanat”, “Isyon va itoat” va “Sabo va Samandar” aslida ana o‘sha “Yolg‘izlik”ning o‘ziga xos tarjimalari, sharhi hisoblanadi. Ayrim hikoyalarda va ayniqsa, 2013 yilda yozilgan “Na’matak” kichik romandagina orzuimga qisman erishdim. Lekin katta hajmdagi asarda buni uddalay olganim yo‘q hali. Yaqinda yakunlagan “Yo‘l va yo‘lovchi” deb nomlangan romanimni o‘quvchi sifatida o‘qib ko‘rsam, yana ko‘pgina o‘rinlarda “Yolg‘izlik”ning ruhiga tushib qolganimni angladim va ko‘nglim biroz cho‘kdi. Ko‘rib turganingizdek, men hali izlanishda ekanman. Hali orzuimdagi asar oldinda ekan. Yetib boramanmi unga yo‘qmi, buni bilmadim, bilganim va, ehtimol, muhimi shuki, men undan esayotgan bo‘yni tuydim”⁹.

Darhaqiqat, mif yoki afsona bag‘rida muayyan xalqning orzu-umidlari, ozodlik, farovonlik, hamjihatlik haqidagi qarashlari mujassam bo‘ladi. Har qanday rivoyat insonni yaxshilikka undashi, qissadan hissa ezgulik ekanligini ta’kidlashi shundan bo‘lsa kerak. Aslida haqiqiy adabiyot insondan umidni tortib olmasligi kerak! Umiddan, ishonchdan boshqa nima bor o‘zi bu olamda? O‘shani ham yo‘q desak... Adabiyot orqali, badiiy so‘z vositasida o‘sha hayot osilib turgan rishtani ham kessak, nima qoladi o‘zi?... Bitta yoki bir qancha g‘amgin she’rning yo‘rig‘i boshqa. Lekin ijodkor tushkunlikni targ‘ib qilsa-chi? Hayotga muhabbatni emas, o‘limga muhabbatni kuylab tursa-chi?.. Uning butun ijodi shunday kayfiyatlar mahsulidan iborat bo‘lsa-chi?.. U holda jim turish jinoyat qilish bilan barobar emasmi?.. Albatta, hech kimga “sen bunday yozma!” deya buyruq berib bo‘lmaydi. Har bir ijodkor qalbi buyurganini yozadi. Faqat jamiyat ichra tushkun

⁹ Умидбахш адабиёт эҳтиёжи (ёзувчи Улугбек Хамдам билан суҳбат). Суҳбатдош Адиба Умирова. 2015 йил, март. (Суҳбат жузъий қисқартиришлар билан “Хуррият” газетасида 2015 йил май ойида эълон қилинди).

kayfiyat urug‘ini sepmasin, qora ruhni targ‘ib qilmasin, buzg‘unchilikni tashviq etmasin, deya istak bildirishga haqqimiz bordir, axir! Tani buzuq bo‘lgan bor, ongi buzuq bo‘lgan bor. Ko‘pincha, keyingisi chunon xavflidir. Chunki birinchi holda zarar asosan insonning o‘ziga va nisbatan ozchilikka, ikkinchisida esa aksariyat holda atrofdagilarga va ko‘pchilikka keladi. Zulmatga xizmat qiladigan asarlar o‘quvchi ongini buzuvchi asarlardir. Bugungi zamondosh uchun yorug‘ asarlar suv bilan havodek zarur. Insoniyatning iymon-u e‘tiqoddan mahrum qismi shundog‘am umidsizlik degan botqoqqa cho‘kib borayapti. Shunday bir paytda bashar ahliga bir qatim nur ilinish ijodkorlarning muqaddas burchi emasmi?! Shu ma’noda Ulug‘bek Hamdamning “Na’matak” mini romani insonlarga qarata aytilgan da’vat, ezgulikka chaqiriqdir.

Romanda Sharq xalqlari, xususan, Islom falsafasi, inson ma’rifati va ma’naviyati, burch hamda ma’suliyati haqidagi qarashlar teran talqin qilinadi. Adib milliy adabiy an’anaga chuqur tayanadi. Shuning uchun ham romanning bayon usuli o‘quvchiga yaqin va uni tushunish nisbatan osonroq kechadi. “Na’matak”da bugungi zamondoshimiz kayfiyatlari aks etadi. Davrning qaynoq nafasini ifodalovchi o‘ziga xos evrilishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Roman qahramonlaridan har birining botinida omonsiz jang, ayovsiz kurash kechadi. Ijtimoiy suratini akslantirgan ongi va ruhida ma’naviy-ruhiy muvozanatning qiynoq-iztiroblari sodir bo‘ladi. Muvozanatga ulkan ehtiyoj sezgan qahramonlar evrilishlar davrida ham jamiyatlararo ham o‘z ko‘ngillari ichra Buyuk Muvozanatni qidiradilar. Romanning yetakchi fikri: inson zoti hayotida moddiy va ma’naviy muvozanatga katta ehtiyoj sezadi. U ko‘zlagan maqsadlarini amalga oshirmog‘i uchun modda va ruh muvozanatini ta’minlanmog‘i nihoyatda muhimdir.

Yozuvchi mazkur fikrni turli dunyoqarashdagi, ehtiyoj-u maqsadlari har xil, turlicha tarbiya ko‘rgan, moddiy va ma’naviy mavqeyi ham bir-biridan farqlanuvchi personajlar orqali ko‘rsatadi. Adib diniy-ilohiy va tasavvufiy fikr-mulohazalarini qahramonlar xarakter xususiyatlari, o‘y-fikrlari, dialog va

monologlariga singdirib boradi. Zamon dolg`alaridan o`zlikni qutqarib bashariyatning ulug` orzulari bilan hamnafas tarzda kurashadigan insonning shakllanish yo`li haqidagi mulohazalar “Na’matak” romanida “Qur’oni Karim” ko`rsatmalari, hadislar, Jaloliddin Rumiy ijodi, dunyoviy falsafaga tayangan holda ilgari suriladi. Shu orqali qahramonlar ruhiy dunyosi ochilib, obraz ishonchliligi ta’minlanadi. Asarda bu uch avlod vakillari obrazlarini qiyosiy yo`sinda keng tahlil etish va birlamchi manbalarga murojaat etish orqali ko`rsatiladi.

Ulug`bek Hamdamning “Na’matak” romanini “hazm qilish” uchun avvalambor unga nisbatan jonli munosabatda bo`lish, yaxlit holda tahlilga tortish kerak bo`ladi. Chunki badiiy asarni o`zlashtirish ham bevosita insonning tasavvuri, bilim darajasi, dunyoqarashi kabi omillarga tegishlidir. Chin badiiyatni inson o`zidan o`tkazishi, unga bevosita qo`shilmog`i lozim. Buning uchun esa asarga ulkan badiiy ishonch bilan qarash – unga bolalarcha yurakni ochish zarur. Shundagina muallifning aslida kimligini, bizga qanday yangi gap aytmoqchi bo`layotganligini to`laroq tushunishimiz mumkin.

Ma’lumki, badiiy asar qahramonlari bir vaqtning o`zida yaxlit butunlik sifatida ichki va tashqi tuzilishga ega bo`ladi. Uning tasviri inson ichki dunyosi va tashqi qiyofasini namoyon etuvchi qator tarkibiy qismlardan tashkil topadi. O`y-fikrlar, his-tuyg` ular hamda g`ayrishuuriy xatti-harakatlarni o`z ichiga oluvchi inson ichki dunyosi badiiy asarlarda turlicha gavdalanadi. A.V.Karelskiyning fikricha, “psixologizmning adabiyotda muqimlashuvi oddiyning ko`p ma’noligiga, qahramonlik xislatlari unchalik ham bo`rtib turmagan xarakterga, ko`p qirrali, “miltillab” turgan personajlarga yozuvchilar diqqat-e’tibori hamda kitobxonlarning mustaqil ma’naviy mulohaza yuritish layoqatiga mualliflar ishonchi bilan shartlanadi”¹⁰.

¹⁰ Карельский А.В. От героя к человеку. Два века западноевропейской литературы. – М.: 1990. – С. 215.

U.Hamdanning “Na’matak” romanida oddiy turmush odamining emas, balki ong va orzu subyekti qiyofasidagi qahramonlarning o‘zini o‘zi anglash masalasi asar badiiy dominanti darajasiga ko‘tariladi. Muallifning dunyoni poetik his etishi aynan qahramonning o‘zini o‘zi anglashiga va bu o‘z-o‘zini anglashning chorasizlarcha poyonsizligiga, cheksizligiga qaratilgan. Professor Hotam Umurov ta’biri bilan aytganda, “..tashqi muhit xarakter ichki dunyosida qo‘zg‘alishlar, zilzilalar, kechinmalar uyg‘otgani kabi, bu ichki dunyoning murakkab “sirlari” xarakter xatti-harakatlarini asoslashga, boshqarishga, tashqi muhit rivojiga turtki beradi”¹¹.

U.Hamdanning psixologizmi – bu ongning qo‘nimsizligiga, inson ichki hayotining har turli tebranishlariga, shaxsining teran qatlamlariga diqqat bilan qarashga qiziqishning badiiy ifodasidir. Yozuvchining badiiy ijodning benazir kashfiyotlaridan biri – Tolstoy va Dostoyevskiylar ijodida namoyon bo‘lgan “qalb dialektikasi”ni to‘la o‘zlashtirganligi asar matni qat-qatlaridan sizib chiqayotgan anglash iztiroblaridan bilinib turadi.

Badiiy asar tarkibida yozuvchi shaxsiyati ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Haqiqiy badiiy asarda o‘ziga xos g‘oya ifodalanib, yozuvchining maqsadi, niyati voqealar olamidani, qahramonlar faoliyatida yuzaga chiqadi. “Na’matak” romanida ham yozuvchi shaxsi va qahramon munosabatlari badiiy talqinda yuksak darajada o‘z aksini topadi.

Yozuvchining bu asarida inson kechinmalarini, ruhiy olamidagi ziddiyatlarni asosli talqin qilinishi bilan ajralib turadi. Roman qahramonlarining o‘zlarida tizgin yo‘q, muallif ham go‘yo bu xayollarni saralamay tasvirlaydi. Odamning o‘ylari oqimidagina namoyon bo‘ladigan insoniy mohiyatini psixologik tasvir orqali yuzaga chiqarsa-da, ruhiy kechinmalardagi xislatlar mahorat bilan asar sujetiga singdirilgan. Bu tasvirlar an’anaviy tasvir usuliga emas, psixologik kechinmalarga singdirilgan hayot voqeligi mavjud. Asarda muayyan bir sujet chizig‘i, muayyan odamlar taqdiri va diologlar ham yetakchilik qilmaydi. Bunda yolg‘iz ko‘ngil

¹¹ Umurov X. I. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – T.: Fan, 2007. – B. 42.

kechinmalari talqin qilingan. Asar ong osti sezimlari, ruhiy olamdagi yashirin mayil-istaklar, iztiroblar, armonlar, orzularimizning o`ziga xos talqinini kuzatamiz.

“Na’matak” romani muayyan bir qiziq voqea-hodisaning badiiy talqiniga bag`ishlangan emas, unda an’anaviy obrazlar, tasvirlar, manzaralar, dialoglar yo`q: u – mini roman. Darhaqiqat, asar noan’anaviy shakldagi sujet liniyasiga ega, noan’anaviy talqin asar voqealarini harakatga keltiradi.

Muallif detalning bor kuchidan ta’sirchanlikni faollashtirishga, kitobxonni ijodga, o`z assosiativ dunyosiga sayohat qilishga va xayolotini kengaytirishga undash uchun foydalangan. Masalan, asardagi na’matak daraxti obrazi, uning sujet tizimidagi o`rni qahramonlar hayotining mungli qo`shig`i bo`lib tuyuladi. U bilan bog`liq bot-bot takrorlanib turadigan tasvirlar qahramonlar tiynatidagi g`alayonlar va sokinliklarni ifodalab, rivoya tempini muvozanatga keltiradi. Voqelikning tartibsiz tasviri ham, qahramonlar qalbidagi xaos yoki tartib tavsifi ham tabiat lavhasining shu tasvirlari ko`magida o`zaro uyg`unlik kasb etadi.

Biz ko`pincha “tayyor” asarlarni o`qishga moyil bo`lamiz. Va “tayyor” qarashlarga suyanib, ustiga ustak, xuddi Amerika kashf qilgan kabi asarni maqtay ketamiz. Hech kim bilmasa, sezmasa, o`sha fikrlarni o`zimizniki ham qilib olamiz. Chunki ko`pchiligimizning tafakkurimiz dangasa. Fikr yuritishdan qochamiz, unga bo`ynimiz yor bermaydi. Xuddi do`konlardan yarimtayyor mahsulotlarni olib, uyga kelib, elektr isitgichda apil-tapil ilitib og`zimizga solayotganimiz kabi ijtimoiy-ma’naviy intilishlarimiz bobida ham o`sha tayyor qarashlarga tobemiz: bizgacha aytilgan mulohazalar qoliplari doirasidan chiqib ketolmaymiz. Hozirda, badiiy asarlarni baholashda, hatto ular o`tmish merosiga oid bo`lsa-da, asosan, bizgacha aytilgan tayyor qarashlarni dastak qilib kun ko`rayotgan chala olimlar urchib ketgandek tuyuladi. Aslida, boshqalarni fikrlarini o`qib-o`rganishning yonida ularga qul bo`lib qolmay, asarni go`yoki endi yozilgandek mutolaa qilish va u haqida o`z mulohazalarimizni aytishimiz kerakmasmi? Boshqa tomondan esa, ulug` asarlar faqat o`tmishda yozilgan degan gayri ilmiy, g`ayrimantiqiy qarashdan voz kechish kerak. Inson, agar u olim bo`lsa ham, o`z davri bilan, uning

muammolari bilan yashamas, ularni his qilmas ekan, shu davrning ko'zgudagi aksi bo'lib yaratilgan asarlari haqida keskin fikr bildirishdan o'zini tiygani ma'qul. Chunki uning xayoli o'tmishga bog'lanib, uning jozibasiga bir umrga mixlangandir. Yaratganning qudrati faqat Aristotel, Ibn Sino, Navoiy yoki Pushkin dahosi bilan to'xtab qolmasligini juda chuqur tafakkur qilmoq joiz. U doimo, hamma davrlarda o'zini turli kasb-kordagi insonlarning aql-u zakosi, qalb mo'jizasi vositasida namoyon qilgan, bundan keyin namoyon qilaveradi. Ne ajabki, bugun yoningdagi iste'dodni tan olish ham bitta qahramonlikka aylanib qoldi! U yog' ini so'rasangiz, o'zingning eng sara ishlaring, avvalo, o'zganing chiroyli ishlarini his qilishdan, unga havasdan boshlanadi. Tuproqqa qorishib yotgan gavharni ko'rish, uning gavhar ekanligini anglash ham bir iste'dod, aslida. Faqat bu iste'dod ustida juda ko'p ter to'kmoq lozimki, nihoyat, yorug' bir kun kelib, o'z gavharingni o'zgaga tutgaysen, uni bahramand etgaysan!

XULOSA

Keyingi yillar o'zbek nasri rivojida Ulug'bek Hamdam bilan Isajon Sulton ijodi alohida o'rin tutadi. Ular bir qancha hikoya va qissalar bilan bir qatorda roman janrida ham samarali ijod qilgan adiblardan hisoblanadilar.

O'zbek adabiyoti to'xtovsiz yangilanayotir. U vaqti-vaqti bilan libosini o'zgartirib turadi, ya'ni yangi to'n kiyib oladi. Bu narsa, ayniqsa, keyingi vaqtlarda bo'rtib ko'rina boshladi. Bugun yostiqdek keladigan romanlarni o'qish nihoyatda mushkul. Qisqalik, lo'ndalik, obrazlilik bugungi adabiyotning asosiy atributlaridan. Chunki vaqtning unumi qolmagan. Texnika va axborot asrlari inson uchun vaqt deb atalgan ne'mat barakasini uchirib yubordi.

Shuni e'tiborga olgan yozuvchilarimiz o'sha vaqt tushunchasidan kelib chiqib, roman mazmunini bitta hikoya hajmiga qamashga harakat qilmoqdalar. Bu bir tajriba, xolos. Albatta, asarga qarashlar har xil bo'ldi, bo'layapti. Buni tabiiy qabul qilish kerak. Faqat tomonlar bu asar o'yin yoki havas tarzida tug'ilmaganligini, uning aynan shunday kichik hajmda yozilganligining, yuqorida bayon etilganidek, juda salmoqli asos – sababi borligini bir bor mushohada qilib ko'rsalar, bas. U yog'ini so'rasangiz, mutolaadan so'ng xotirangizda hikoyaning yukicha mazmun qoldirmagan yostiqdek romandan, romanning yukidek mazmun qoldirgan jimitdek hikoya ko'p bora afzal.

Bugungi adabiy jarayondagi depsinishlar-u olg'a siljishlarni unda kechayotgan o'tish qiyinchiliklariga yo'yadigan bo'lsak, adabiy janrlarning o'z sathidan og'ishiga, qorishuviga, sinteziga ko'nish yoki hech bo'lmaganda, lo'ndalashuviga yo'l ochish lozim. Xo'sh, bugun milliy adabiyotimizda urf bo'la boshlagan mini romanlar yuzaga kelishining tub sabablari nimada? Nima uchun yozuvchilar romandek yirik epik janrning hajmini toraytirishga, uning an'anaviy ko'rinishlarini o'zgartirishga urinishmoqda? Darhaqiqat, hikoya-roman, roman-qissa, roman-hikoya va hokazolar kelajakning emas, balki bugunning voqeligi bo'lib turibdi. Internet va uyali aloqaning paydo bo'lishi ortidan yuzaga kelgan fikrni qisqa va aniq yetkazish (xususan, mablag' ni tejash) ehtiyoji tufayli

ko‘pchilik bu taxlit transformasiyaga ajablanmasligi ham mumkin. Matn maydonining tobora kichrayishi, asosiy e‘tiborning muayyan mazmun konsentrasiyasiga qaratilishi, tilning metafora evaziga sayqallanishi janrlar sintezi va transformasiyasiga, roman ichida har turli mif va rivoyatlarning, o‘zidan avvalgi asarlarning qo‘yqasini (qaymog‘ ini) berishga bo‘lgan intilishlarga yo‘l ochaveradi. Multiplikasiya, kinematografiya unsurlarining qorishig‘i, montaj va kollaj usullarining qo‘llanilishi zamonaviy adabiyotning ajralmas bo‘lagiga aylanmoqda (Ayni jihatlar istiqlool arafasida “Lolazor”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Yozning yolg‘ iz yodgori”, “Otamdan qolgan dalalar” romanlarida to‘laligicha bo‘y ko‘rsatgan edi).

Bu haqda mulohaza yuritganda, bugungi davr kishisining – zamondoshimizning kundalik turmushini ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazganimizda ko‘p so‘zli roman o‘z missiyasini ado etib bo‘lganligi haqidagi fikrlarga qo‘shilgining keladi, kishi. Rostdan ham, hozir roman uchun asosiysi – hissiyotlilik, jo‘shqinlik, siriqlik. Hatto interyer va psixologizm tasviri ham uzundan-uzoq tavsiflardan xoli tarzda, qisqa ekspozisiya hamda monolog va dialoglar orqali berilishi shart. Bugungi kitobxonni “kosa tagidagi nimkosa” bilangina qiziqtirish, kitob o‘qishga chorlash mumkin bo‘lib qoldi.

To‘g‘ risi ham, bugungi odam yonidagi hamshirasiga aytmagan hasratlaridan internetda og‘iz ochayotir, eng yaqin kishisiga aytishdan uyalgan fikrlariga boshqalar nima derkin, deya sahifasini yangilayotir. Yana bir gap: munaqqid-adabiyotshunoslardan tortib, kitobxonlargacha barcha-barcha ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirgan bir paytda ijodkor odam jild-jild asarini qo‘ltiqlab nashriyotda o‘tirs, kulgiga qolishini anglab turgani ayanchli. Shu jihatlarni ko‘rib, his qilib turgan vijdonli odam borki, Feysbook, Instagram, Twitter, Vats App, Vayber kabi ijtimoiy tarmoqlarda o‘z ijodini o‘zi PR qilishga kirishgan ijodkorlarimizni qoralashga haqqi yo‘q, aksincha, ularni qo‘llab-quvvatlashi, hech qursa sahifasida chiqqan asariga “like” tugmasini bosish orqali olqishlashi shart.

Adabiyotning kelajagi qanday bo‘ladi, degan savolga javob izlansa, bo‘l

g'usi adabiyot (bir paytlar R.Bart "muallif o'limi"ni isbotlaganidek) endilikda muallif anonimligi va shartlilikiga intilaveradi, matnlarni "miks" qilish oddiy holga aylanadi, zamonaviy radiolarda bo'lganidek, adabiyotda ham adabiy didjeylar paydo bo'ladi, deging keladi. Masalaga bunday yondashuv shuni ko'rsatadiki, irfoniy mavzudagi materialni eskicha ifoda tarzi orqali bugungi kitobxon ongida qayta tiriltirish amaliyoti o'zini oqlamaydi. Undan ham battari: fahsh, to'shakdagi beqiliqliklar, beparda aljirashlar-u yaltiroq qog'ozga o'ralgan o'tkinchi kechinmalar tasviri vaziyatni battar chigallashtiradi.

Sinchiklab razm solinsa, bularning barchasi zamonaviy adabiyotning uch ko'rsatayotgan inqirozidan darak berib turgan majburiy ehtiyojdir. Ammo adabiyotdagi turg'unlikni yengib o'tish yo'lida uchraydigan bunday "imkoniyatlar" bilan bir qadar hisoblashmaslik ham mumkin emas.

Darhaqiqat, ko'pchilik zamondosh ijodkorlar shaklga shu darajada ruju qo'yishdiki, natijada ko'p hollarda alam bilan mazmunning oqsayotganini kuzatishga to'g'ri kelmoqda. Qosh-u ko'zi joyida tuppa-tuzuk matnlar yozib tashlanmoqda, lekin ularda eng zarur unsur – yaratuvchi ruh yo'q! Adabiyot, san'at katta ma'noda o'yinga aylantirila boshlandi. To'g'ri, adabiyotda o'yinlik xususiyati bor. Lekin u dominant mavqega ega bo'lishi kerak emas. Gap shundaki, adabiyot inson dardidan, adolat va haqiqatdan uzoqlashar va shaklbozlikni o'zining bosh a'moliga aylantirar, san'at asosini boshqotirmadan iborat deb bilar ekan, u sariq chaqaga ham arzimaydi. Adabiyotni ko'ngilxushlik darajasiga tushirmaslik kerak. Haqiqiy adabiyot, bu – inson ruhi aks etguvchi ilohiy ko'zgudir.

Umuman, roman mini, ya'ni kichik hajmli bo'lishi mumkinmi, agar shunday bo'lgan taqdirda, janr qoidalari haqida shu paytgacha aytilgan fikrlarga to'la mos keladimi, degan savollar ko'pchilikni o'ylantirishi, tabiiy. Roman jamiyat badiiy-estetik tafakkuri in'ikosi sifatida yuzaga kelar ekan, olam ichra har turli ko'ylarga tushayotgan, turmush mushkulotlari ta'sirida har turli evrilishlarni boshdan kechirayotgan inson adabiyotning bosh mavzusi bo'lib qolaveradi. Har soniya fursat va imkoniyatni boy berib qo'ymaslik uchun kurashayotgan inson obrazi

mukammal talqin darajasida romanda tiklanmaguncha, olamning badiiy modelini yaratish muammolari dolzarbligicha turaveradi.

Shu ma'noda, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdam qalamiga mansub mini romanlar janr imkoniyatlarini kengaytirganligi, uning bugungi adabiy-estetik ehtiyojlar talabidan kelib chiqib o'zgarayotganligini bildiradi.

Eng muhimi, mini romanlar janrning yirik hajmli salmoqdor vakillari ko'tara olgan falsafiy-badiiy umumlashmalarni o'z bag'riga sig'dira olsa, davr, unda yashayotgan turfa odamlarning estetik ehtiyojlariga mos masalalarni yorita olsa, shuning o'zi kifoya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар: –Т.: Ўзбекистон, 2001. -76 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1999. – 232 б.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008 й.
4. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009. –Б. 40.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

5. Абдурахмонова М. Рухий дунё тасвири. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997.
6. Адабиёт назарияси. Икки томлик. I-т. Адабий асарда конфликт. –Т.: Фан, 1978.
7. Аникст А. Аристотель. Анализ фабулы // Аникст А. Теория драмы: от Аристотеля до Лессинга. –М.: Наука, 1967.
8. Аристотель. Поэтика. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б.
9. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 412 с.
10. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – 424 с.
11. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. – 616 с.
12. Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX-XX вв.: Трактаты. Статьи. Эссе. – М.: 1987. – С . 407.

13. Белянин В.П. Психологическое литературоведение (текст как отражение внутренних миров автора и читателя). – Москва: «Генезис», 2006.
14. Белинский В.Г. Танланган асарлар. -Т.: Ўздавнашр, 1955. -510 б.
15. Бобоев Т. “Адабиётшуносликка кириш” курсидан ўқув методик қўлланма. -Т.: Ўқитувчи, 1979. – 288 б.
16. Бочаров С.Г. Пруст и «поток сознания»// Критический реализм XX века и модернизм. – М.: 1967. – С. 196.
17. Белый А. Ибсен и Достоевский// Белый А. Символизм как миропонимание. – М.: 1994. – С. 198.
18. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент, “Фан”, 1992.
19. Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы. Москва., 1988.
20. Ёқубов О. Қаҳрамонларни ҳаётдан қидирайлик // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2001 йил, 3-ноябрь.
21. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. – Тошкент, Фан, 1994.
22. Карвонли Ҳ. Илғаб бораётир мени фасллар. – Тошкент, “Янги нашр”, 2010.
23. Карельский А.В. От героя к человеку. Два века западноевропейской литературы. –Москва: 1990.
24. Карим Баҳодир. Улуғбекнинг дил изҳори// Ҳамдам У. Узоқдаги Дилнур (Қисса, ҳикоя ва шеърлар). –Тошкент, “Академнашр”, 2010.
25. Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Л.: ЛГУ, 1983.
26. Компанеев В.В. Художественный психологизм в современной литературе. Волгоград. – 1980. 47-с.
27. Маслова В.А Лингвокультурология. –Москва, Асадема, 2004.
28. Мирвалиев С. Ўзбек романи. –Тошкент, Фан, 1969.
29. Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. –Тошкент, “Фан”, 1977.
30. Мирзаев И. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услубий ранг-

баранглиги. –Тошкент, Фан, 1983.

31. Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1983..

32. Мирвалиев С. Адабиёт –давр даъваткори. –Т.:Ўзбекистон, 1984.

33. Мирвалиев С. Насримиз давримиз хизматида.–Т.:Ўзбекистон, 1976.

34. Норматов У. Насримиз тамойиллари. -Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1978.

35. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Тошкент, Маънавият, 2000.

36. Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. –Т: Адабиёт ва санъат, 1980.

37. Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. –Т.: Ёш гвардия, 1980.

38. Норматов У. Етуклик. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1982.

39. Норматов У. Насримиз анъаналари. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1978.

40. Расулов А. Янги замон – янги қаҳрамон. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1978.

41. Расулов Т. Бадиий асар қанотлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.

42. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент, Шарқ, 2007.

43. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент, Шарқ, 2007 йил.

44. Содиков С. Исённинг ҳудуди борми... итоатнинг-чи?// “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2004 йил, 12-ноябрь.

45. Солижонов Й. Нутқ ва услуб. –Тошкент, Чўлпон, 2002.

46. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1980.

47. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2011.

48. Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80 йиллар). ДДА. –Тошкент, 1994.

49. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. Тошкент, Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2002.

50. Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. –Тошкент, Ўзбекистон, 2001.

51. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги замон ўзбек романчилиги. –Тошкент, Фан, 1983.

52. Умуров Ҳ. Рисолалар, сайланма, 1-жилд. –Тошкент, “Фан”, 2007.
53. Умуров Ҳ. Рисолалар, сайланма, 2-жилд. –Тошкент, “Фан”, 2008.
54. Уэллек Р. И Уоррен О. – Москва: Прогресс, 1978.
- Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент, “Шарқ”, 2004.
55. Шарофиддинов О. Довондаги ўйлар. –Т.: Маънавият, 2004.
56. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Т.: «Шарқ», 2004. –Б.640.
57. Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. –Т.: «Янги аср авлоди», 2006, -Б. 548.
58. Қуронов Д. Адабий жараёнда “Мом синдроми”. –Тошкент, “Академнашр”, 2010.
59. Қуронов Д. Сўнгсўз ўрнида. // Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат, “Минҳож” нашри, 2004.
60. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент, “Шарқ”, 2004.
61. Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент, “Фан”, 1991.
62. Қўшжонов М. Шиддат билан ёзилган роман. –Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат, “Минҳож” нашри, 2004.
63. Қўшжонов М. Сайланма. III том. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. 205-бет.

III. Badiiy adabiyotlar:

64. Айтматов Ч., Шохонов М. Чўққида қолган овчининг оҳи-зори: (Аср адоғида айтилган истиффор) // Тарж.: Н. Боқий, Ё. Ҳўжамберди. – Т.: Шарқ, 1998. – 432 б.
65. “Жаннатмакон” // Адабиёт ва одамлар. 2005 йил, октябрь.
66. Султон И. Боқий дарбадар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – 280 б.
67. Султон И. Боғи Эрам. – Тошкент: “Sharq”, 2015. – 256 б
68. Ҳамдам У. Исён ва итоат. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2009.
69. Ҳамдам У. Мувозанат.- Тошкент, “Минҳож”, 2004.

70. Ҳамдам У. Сабо ва Самандар. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2011.
71. Ҳамдам У. Узоқдаги Дилнура. (Қисса, ҳикоя ва шеърлар) – Тошкент, “Академнашр”, 2010.
72. Ҳамдам У. Ватан ҳақида қўшиқ. (Романлар ва ҳикоялар) – Тошкент, “Akademnashr”, 2014.

IV. Internet manbalari:

73. www.gumer.ru
74. www.lgz.ru
75. www.ulugbekhamdam.uz
76. www.ziyonet.uz
77. www.ziyouz.com

